
V bob. BANK FAOLIYATINI TAHLIL QILISH

5.1. Bank moliyaviy hisoboti

Har qanday faoliyatning kelgusi rejalarini tuzish uchun o'tgan davrda amalga oshirilgan ishlar tahlili asos bo'ladi. Banklar ham o'z faoliyatlarini tahlil qilish orqali kelajakdagi rejalarini tuzadi va faoliyat yo'nalishlarini belgilaydi.

Bank faoliyatini tahlil qilish bankning o'tgan davrdagi faoliyatining kamchiliklari va yutuqlarini yaqqol ko'rsatadi. Bozor iqtisodiyoti va banklararo raqobat muhitida banklar uchun o'z kamchiliklarini bilish va ularni tuzatish chora-tadbirlarini ko'rish juda muhim.

Bank faoliyatini tahlil qilishda banklarning moliyaviy hisobotlari juda muhim obyekt hisoblanadi. Bankning moliyaviy hisoboti o'zida bankning qay darajada faoliyat ko'rsatayotganligini ifodalaydi. Bankning moliyaviy hisobotlari quyidagilar hisoblanadi:

- bank balans hisoboti;
- moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot;
- pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot.

Bank faoliyatini amaliy jihatdan tahlil qilish uchun biz quyida bankning taxminiy moliyaviy hisobotini keltirganmiz.

Bankning yillik balans hisoboti

(Amaliy tahlil qilish uchun hisobotdagi sonlar taxminiy olindi,
2010—2011-yillar misolida)

Aktivlar

ming AQSH dollari

T/r	Hisobvara- raq raqami	Hisobvaraqlar nomi	2010-yil	2011-yil
1	10100	Kassadagi naqd pul va boshqa pul hujjatlar	11063,9	12690,7
2	10300	MBdagi hisobvaraqlar	36879,5	46683,8

3	10500	Boshqa banklardagi hisobvaraqlar	36141,9	52122,7
4	10700	Qimmatli qog'ozlar savdosi uchun mo'ljallangan hisobvaraqlar	17333,4	22662,1
5	10900	Qimmatbaho metallar savdosi uchun mo'ljallangan hisobvaraqlar	1844,0	3625,9
6	11100	Sotib olingan debitorlik qarzlari	7375,9	4985,7
7	11300	Sotib olingan vekselar	0,0	0,0
8	11500	Mijozlarning akkreditiv/trast hujjatlari bilan kafolatlangan trattalar bo'yicha majburiyatlari	7744,7	11784,3
9	11700	Bankning to'lanmagan akseptlari bo'yicha mijozlarning majburiyatlari	5531,9	5892,1
10	11800	REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlar	25815,7	30820,4
11	11900— 13200	Bank tomonidan berilgan qisqa muddatli ssudalar	44624,2	43057,9
12	13300— 14400	Bank tomonidan berilgan o'rta muddatli ssudalar	49787,3	52122,7
13	14500— 15500	Bank tomonidan berilgan uzoq muddatli ssudalar	39461,1	58468,1
14	15700	Sud jarayonidagi ssudalar	1106,4	0,0
15	15900	Investitsiyalar	37617,1	50309,8
16	16100	Bosh bank/bo'limlardan olinadigan mablag'lar	1106,4	3625,9
17	16300	Aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar	9219,9	15410,2
18	16500	Bankning mulki	22127,7	27647,7
19	16700	Bankning boshqa xususiy mulklari	4794,3	4985,7
20	19900	Boshqa aktivlar	9219,9	6345,4
Aktivlar bo'yicha jami			368795	453241

Passivlar

ming AQSH dollari

T/r	Hisob- vara- raqami	Hisobvaraqlar nomi	2010-yil	2011-yil
<i>Majburiyatlar</i>				
1	20200	Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar	51631,3	49856,5
2	20400	Jamg'arma depozitlar	29503,6	38525,5
3	20600	Muddatli depozitlar	35035,5	52122,7
4	20800	MBning hisobvaraqlari	18439,8	24021,8
5	21000	Boshqa banklarning hisob- varaqlari	11063,9	17223,2
6	21200	Boshqaruv cheklari	4794,3	4985,7
7	21400	Bankning to'lanmagan akseptlari	0,0	0,0
8	21600	Olingan qisqa muddatli ssudalar	4425,5	3172,7
9	21800	Olingan o'rta muddatli ssudalar	1475,2	4985,7
10	22000	Olingan uzoq muddatli ssudalar	13276,6	15863,4
11	22200	Bosh bank/bo'limlarga to'lanadigan mablag'lar	11432,6	11331,0
12	22300	REPO bitimlari bo'yicha sotilgan qimmatli qog'ozlar	14751,8	19036,1
13	22400	Majburiyatlar bo'yicha hisoblangan foizlar	11432,6	12237,5
14	22600	Mijozlarning boshqa depozitlari	12907,8	18129,6
15	23200	Kliring tranzaksiyalari	6638,3	6798,6
16	23400	Hukumatga tegishli daromad va boshqa tushumlar	22127,7	20849,1
17	23600	Bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	12170,2	18129,6
18	29800	Boshqa majburiyatlar	5531,9	5438,9
Majburiyatlar bo'yicha jami			266638,8	322707,6

<i>Kapital</i>				
1	30300	Aksiyadorlik kapitali	77447,0	96540,3
2	30600	Qo'shimcha kapital	4425,5	5892,1
3	30900	Zaxira kapitali	11063,9	14957,0
4	31200	Taqsimlanmagan foyda	9219,9	13144,0
Kapital bo'yicha jami			102156,2	130533,4
Passiv bo'yicha jami			368795	453241

Bankning moliyaviy natijalari to'g'risida hisobot
(2010-yil uchun)

ming AQSH dollari

T/r	Ko'rsatkichlar	2010-yil	
		Daromad	Xarajat
1	Foizli daromadlar		X
1.1	O'zRMBdagi hisobvaraqlar bo'yicha foizli daromadlar	2212,8	X
1.2	Boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha foizli daromadlar	2168,5	X
1.3	Qimmatli qog'ozlar savdosi uchun mo'ljallangan hisobvaraqlar bo'yicha foizli daromadlar	2253,3	X
1.4	Sotib olingan veksellar bo'yicha foizli daromadlar	0	X
1.5	Mijozlarning majburiyatlari bo'yicha hisoblangan foizlar	1471,5	X
1.6	Bankning to'lanmagan akseptlari bo'yicha mijozlarning majburiyatlari bo'yicha hisoblangan foizlar	553,2	X
1.7	Bank tomonidan berilgan qisqa muddatli ssudalar bo'yicha foizli daromadlar	13387,3	X
1.8	Bank tomonidan berilgan o'rta muddatli ssudalar bo'yicha foizli daromadlar	12944,7	X
1.9	Bank tomonidan berilgan uzoq muddatli ssudalar bo'yicha foizli daromadlar	6313,8	X
1.10	Sud jarayonidagi ssudalar bo'yicha foizli daromadlar	221,3	X

1.11	Investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar	5266,4	X
1.12	Boshqa foizli daromadlar	785,6	X
Jami foizli daromadlar		47578,4	X
2	Foizli xarajatlar	X	
2.1	Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar	X	2065,3
2.2	Jamg'arma depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar	X	5900,7
2.3	Muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar	X	8758,9
2.4	O'zRMBning hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar	X	922
2.5	Boshqa banklarning hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar	X	553,2
2.6	Bankning to'lanmagan akseptlari bo'yicha foizli xarajatlar	X	0
2.7	Qisqa muddatli ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar	X	796,6
2.8	O'rta muddatli ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar	X	206,5
2.9	Uzoq muddatli ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar	X	1593,2
2.10	Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlar	X	2920,9
2.11	Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan <i>REPO</i> bitimlari bo'yicha foizli xarajatlar	X	1032,6
2.12	Boshqa foizli xarajatlar	X	652
Jami foizli xarajatlar		X	24682,9
Jami to'langan foizlar		X	7201,8
3	Foizsiz daromadlar		X
3.1	Xorijiy valutalardagi foyda	3844	X
3.2	Tijorat operatsiyalaridan olingan foyda	349	X
3.3	Investitsiyalardan olingan foyda va dividendlar	1035	X
3.4	Boshqa foizsiz daromadlar	398	X
Jami foizsiz daromadlar		5626	X

4	Foizsiz xarajatlar	X	
4.1	Xorijiy valutalarda ko‘rilgan zararlar	X	0
4.2	Tijorat operatsiyalaridan ko‘rilgan zararlar	X	0
4.3	Investitsiyalardan ko‘rilgan zararlar	X	0
4.4	Boshqa foizsiz xarajatlar	X	0
4.5	Bank xizmatchilarining ish haqi va ular uchun qilingan boshqa xarajatlar	X	1620
4.6	Ijara va ta‘minot xarajatlari	X	221
4.7	Xizmat safari va transport xarajatlari	X	57
4.8	Ma‘muriy xarajatlar	X	103
4.9	Reprezentatsiya va xayriya	X	34
4.10	Eskirish xarajatlari	X	3319
4.11	Sug‘urta, soliq va boshqa xarajatlar	X	1340
Jami foizsiz xarajatlar		X	6694
Daromad solig‘i to‘languncha bank foydasi (zarar)		21827,5	
5	Daromad solig‘i	X	3620
Hisobot davridagi sof foyda (zarar)		18207,5	

Bankning moliyaviy natijalari to‘g‘risida hisobot
(2011-yil uchun)

ming AQSH dollari

T/r	Ko‘rsatkichlar	2011-yil	
		Daromad	Xarajat
1	Foizli daromadlar		X
1.1	O‘zRMBdagi hisobvaraqlar bo‘yicha foizli daromadlar	2667,6	X
1.2	Boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo‘yicha foizli daromadlar	2918,9	X
1.3	Qimmatli qog‘ozlar savdosi uchun mo‘ljallangan hisobvaraqlar bo‘yicha foizli daromadlar	3399,3	X

1.4	Sotib olingan veksellar bo'yicha foizli daromadlar	0	X
1.5	Mijozlarning majburiyatlari bo'yicha hisoblangan foizlar	2356,9	X
1.6	Bankning to'lanmagan akseptlari bo'yicha mijozlarning majburiyatlari bo'yicha hisoblangan foizlar	589,2	X
1.7	Bank tomonidan berilgan qisqa muddatli ssudalar bo'yicha foizli daromadlar	12056,2	X
1.8	Bank tomonidan berilgan o'rta muddatli ssudalar bo'yicha foizli daromadlar	11467	X
1.9	Bank tomonidan berilgan uzoq muddatli ssudalar bo'yicha foizli daromadlar	8185,5	X
1.10	Sud jarayonidagi ssudalar bo'yicha foizli daromadlar	0	X
1.11	Investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar	6540,3	X
1.12	Boshqa foizli daromadlar	884	X
Jami foizli daromadlar		51064,9	X
2	Foizli xarajatlar	X	
2.1	Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar	X	1495,7
2.2	Jamg'arma depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar	X	6934,6
2.3	Muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar	X	11467
2.4	O'zRMBning hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar	X	960,9
2.5	Boshqa banklarning hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar	X	688,9
2.6	Bankning to'lanmagan akseptlari bo'yicha foizli xarajatlar	X	0
2.7	Qisqa muddatli ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar	X	507,6
2.8	O'rta muddatli ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar	X	648,1
2.9	Uzoq muddatli ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar	X	1586,3

2.10	Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlar	X	3988,5
2.11	Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan <i>REPO</i> bitimlari bo'yicha foizli xarajatlar	X	1142,2
2.12	Boshqa foizli xarajatlar	X	580
Jami foizli xarajatlar		X	29999,8
3	Foizsiz daromadlar		X
3.1	Xorijiy valutalardagi foyda	4100	X
3.2	Tijorat operatsiyalaridan olingan foyda	364	X
3.3	Investitsiyalardan olingan foyda va dividendlar	1133	X
3.4	Boshqa foizsiz daromadlar	430	X
Jami foizsiz daromadlar		6027	X
4	Foizsiz xarajatlar	X	
4.1	Xorijiy valutalarda ko'rilgan zararlar	X	0
4.2	Tijorat operatsiyalaridan ko'rilgan zararlar	X	0
4.3	Investitsiyalardan ko'rilgan zararlar	X	0
4.4	Boshqa foizsiz xarajatlar	X	0
4.5	Bank xizmatchilarining ish haqi va ular uchun qilingan boshqa xarajatlar	X	1830
4.6	Ijara va ta'minot xarajatlari	X	310
4.7	Xizmat safari va transport xarajatlari	X	60
4.8	Ma'muriy xarajatlar	X	140
4.9	Reprezentatsiya va xayriya	X	60
4.10	Eskirish xarajatlari	X	4147
4.11	Sug'urta, soliq va boshqa xarajatlar	X	1450
Jami foizsiz xarajatlar		X	7997
Daromad solig'i to'languncha bank foydasi (zarar)		19022,2	
5	Daromad solig'i	X	3700
Hisobot davridagi sof foyda (zarar)		15322,2	

Pul mablagʻlari harakati toʻgʻrisida hisobot

ming AQSH dollari

T/r	Koʻrsatkichlar	2011-yil
1	Operatsion faoliyat	
1.1	Olingan foizlar	51064,9
1.2	Olingan vositachilik haqi	2480
1.3	Olingan boshqa operatsion daromadlar	6027
1.4	Toʻlangan foizlar	29999,8
1.5	Komission toʻlovlar	350
1.6	Ish haqi va xodimlarga boshqa toʻlovlar	1830
1.7	Toʻlangan umumiy, maʼmuriy va boshqa operatsion xarajatlar	9067
1.8	Operatsion aktivlar va majburiyatlarda oʻzgarishlar boʻlgunga qadar operatsion foyda (1.1+1.2+1.3—1.4—1.5—1.6—1.7)	18325,1
	<i>Operatsion aktivlardagi kamayish (koʻpayish)</i>	
1.9	OʻzRMBda boʻlishi shart boʻlgan xazira hisobvaragʻi	9804,3
1.10	Banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlardagi hisobvaraqlar	15980,8
1.11	Mijozlarga ssudalar va boʻnaklar	19776,1
1.12	«Qayta <i>REPO</i> » bitimlari boʻyicha olishga hisobvaraqlar	2004,7
1.13	Boshqa aktivlar	—2874,5
	<i>Operatsion majburiyatlardagi kamayish (koʻpayish)</i>	
1.14	Banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlardagi hisobvaraqlar	6159,3
1.15	Mijozlar depozitlari	24334,3
1.16	Boshqa olingan qarzlar	4844,5
1.17	Boshqa majburiyatlar	—93
1.18	Soliqlar toʻlangunga qadar operatsion faoliyatdan tushgan sof pul mablagʻlari	
1.19	Foydaga toʻlangan soliq	3700

1.20	Operatsion faoliyatdan sof pul mablagʻlari (1.8+(1.9 dan 1.19 gacha))	101961,6
2	<i>Investitsion faoliyat</i>	
2.1	Asosiy vositalar sotuvidan olingan tushum	0
2.2	Asosiy vositalarni sotib olish	1382,4
2.3	Olingan dividendlar	1133
2.4	Olingan foizlar	
2.5	Investitsion faoliyatdan pul mablagʻlari (2.1+2.3+2.4-2.2)	-249,4
3	<i>Moliyaviy faoliyat</i>	
3.1	Aksiyalarga ega boʻlish	19093,3
3.2	Ustav kapitalining koʻpayishi	5892,1
3.3	Chiqarilgan qarz majburiyatlari	18129,6
3.4	Toʻlangan dividendlar	3988,5
3.5	Moliyaviy faoliyatdan pul mablagʻlari (3.1+3.2+3.3-3.4)	39126,5
4	Pul mablagʻlari va ular ekvivalentlarining sof koʻpayishi (1.20+2.5+3.5)	140838,7
5	Yil boshidagi pul mablagʻlari va ularning ekvivalentlari	112901
6	Yil oxiridagi pul mablagʻlari va ularning ekvivalentlari (4+5)	253739,7

Yuqoridagi hisobotlarga qoʻshimcha ravishda bank balansining daromadlari, xarajatlari va koʻzda tutilmagan holatlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni ham ilova qilmoqchimiz:

T/r	Hisob- vara- raqami	Hisobvaraqlar nomi	2010-yil	2011-yil
Daromadlar				
1	40200	OʻzRMBdagi hisobvaraqlar boʻyicha foizli daromadlar	2212,8	2567,6
2	40400	Boshqa banklardagi hisobvaraqlar boʻyicha foizli daromadlar	2168,5	2918,9

3	40600	Qimmatli qog'ozlar savdosi uchun mo'ljallangan hisobvaraqlar bo'yicha foizli daromadlar	2253,3	3399,3
4	40800	Sotib olingan veksellar bo'yicha foizli daromadlar		
5	41000	Mijozlarning majburiyatlari bo'yicha hisoblangan foizlar	1471,5	2356,9
6	41200	Bankning to'lanmagan akseptlari bo'yicha mijozlarning majburiyatlari bo'yicha hisoblangan foizlar	553,2	589,2
7	41400— 42600	Bank tomonidan berilgan qisqa muddatli ssudalar bo'yicha foizli daromadlar	13387,3	12056,2
8	42800— 43800	Bank tomonidan berilgan o'rta muddatli ssudalar bo'yicha foizli daromadlar	12944,7	11467,0
9	43900— 44600	Bank tomonidan berilgan uzoq muddatli ssudalar bo'yicha foizli daromadlar	6313,8	8185,5
10	44700	Sud jarayonidagi ssudalar bo'yicha foizli daromadlar	221,3	0,0
11	44800	Investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar	5266,4	6540,3
12	44900	Boshqa foizli daromadlar	785,6	884,0
13	45000	Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan <i>REPO</i> bitimlari bo'yicha foizli daromadlar	3614,2	4931,3
14	45200	Foizsiz daromadlar	2160,0	2480,0
15	45400	Xorijiy valutalardagi foyda	3844,0	4100,0
16	45600	Tijorat operatsiyalaridan olingan foyda	349,0	364,0
17	45800	Investitsiyalardan olingan foyda va dividendlar	1035,0	1133,0
18	45900	Boshqa foizsiz daromadlar	398,0	430,0
Daromadlar bo'yicha jami			58978,5	64403,1

T/r	Hisob- vara- raqami	Hisobvaraqlar nomi	2010-yil	2011-yil
<i>Xarajatlar</i>				
1	50100	Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar	2065,3	1495,7
2	50600	Jamg'arma depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar	5900,7	6934,6
3	51100	Muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar	8758,9	11467,0
4	51600	O'zRMBning hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar	922,0	960,9
5	52100	Boshqa banklarning hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar	553,2	688,9
6	52600	Bankning to'lanmagan akseptlari bo'yicha foizli xarajatlar		
7	53100	Qisqa muddatli ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar	796,6	507,6
8	53600	O'rta muddatli ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar	206,5	648,1
9	54100	Uzoq muddatli ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar	1593,2	1586,3
10	54200	Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlar	2920,9	3988,5
11	54300	Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan <i>REPO</i> bitimlari bo'yicha foizli xarajatlar	1032,6	1142,2
12	54900	Boshqa foizli xarajatlar	652,0	580,0
13	55100	Foizsiz xarajatlar	345,0	350,0
14	55300	Xorijiy valutalardan ko'rilgan zararlar		
15	55600	Tijorat operatsiyalaridan ko'rilgan zararlar		
16	55800	Investitsiyalardan ko'rilgan zarar		
17	55900	Boshqa foizsiz xarajatlar		
18	56100	Bank xizmatchilarining ish haqi va ular uchun qilingan boshqa xarajatlar	1620,0	1830,0

19	56200	Ijara va ta'minot xarajatlari	221,0	310,0
20	56300	Xizmat safari va transport xarajatlari	57,0	60,0
21	56400	Ma'muriy xarajatlari	103,0	140,0
22	56500	Reprezentatsiya va xayriya	34,0	60,0
23	56600	Eskirish xarajatlari	3319,0	4147,0
24	56700	Sug'urta, soliq va boshqa xarajatlari	1340,0	1450,0
25	56900	Daromad solig'i	3620,0	3700,0
Xarajatlari bo'yicha jami			36060,8,5	42046,9

T/r	Hisob- vara- raqami	Hisobvaraqlar nomi	2010-yil	2011-yil
<i>Ko'zda tutilmagan holatlar</i>				
1	90300	Qimmatli qog'ozlar blanklari	1780	1932
2	90900	Savdoga oid moliyalashlar	1354	1166
3	91500	Aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar va vositachilik haqlari	9219	15410
4	91800	Bankning ssuda majburiyatlari	535	244
5	91900	Qarzдорlarning ssuda majburiyatlari	1892	2360
6	92700	Forvard tranzaksiyalar	2350	1421
7	93600	Saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar va boshqa qimmatbaho buyumlar	4667	5389
8	94500	Garov sifatidagi qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquqlar	28970	35245
9	95400	Boshqa ko'zda tutilmagan holatlar	1234	1320
Ko'zda tutilmagan holatlar bo'yicha jami			52001	64487

5.2. Bank operatsiyalari tahlili

Bank menejmentining bank operatsiyalarini iqtisodiyotga mos ravishda takomillashtirib borish tamoyili bank faoliyatini tahlil qilishni talab qiladi. Bank faoliyatini tahlil qilish bank menejmentining asosiy vazifalaridan biri hamdir. Tahlil asosida bank o'zining amalga oshirgan operatsiyalarini qay darajada amalga

oshirayotganligini, operatsiyalarning kamchilik va yutuqlarini, qaysi operatsiyadan qay darajada foyda keltirayotganini, mijozlarning qaysi operatsiyalarga talabning ko'p yoki kamligini bilish imkonini beradi. Yuqoridagilar asosida bank operatsiyalari tahlili amalga oshiriladi.

Bank operatsiyalari tahlilida bankning aktiv, passiv va vositachilik operatsiyalari umumiy va analitik tahlil qilinadi.

Quyida bankning moliyaviy hisobotlariga asoslangan holda bank operatsiyalarini umumiy tahlil qilamiz:

Bank operatsiyalari tahlili

ming AQSH dollari

T/r	Ko'rsatkichlar	2010-yil		2011-yil		O'zgarishi	
		Summa	%	Summa	%	Summa	%
1	Aktiv operatsiyalar	224965	44,21	267865,6	42,66	42900,6	119,07
2	Passiv operatsiyalar	197674	38,84	246109,8	39,19	48435,8	124,5
3	Vositachilik operatsiyalari	86245,3	16,95	113977,2	18,15	27731,9	132,15
Jami		508884,3	100	627952,6	100	119068,3	123,40

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bank tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 23,4 foizga o'sgan, ya'ni 119068,3 ming AQSH dollariga ko'paygan, buning o'zgarishiga uchta omil ta'sirini quyida ko'rishimiz mumkin:

- *aktiv operatsiyalar* — bank resurslarini daromad ko'rish yo'nalishida joylashtirish bilan bog'liq operatsiya hisoblanib, bu operatsiya hajmi 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 19,07 foizga o'sgan, ya'ni 42900,6 ming AQSH dollariga ko'paygan. Bank aktiv operatsiyalari hajmining ortishi — bu bank daromad keltiruvchi aktivlarining ko'payishi demakdir. Bu bank operatsiyalari hajmining hamda bankning daromad keltiruvchi aktivlari summasining o'tgan yilga nisbatan ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Faqat bank aktiv operatsiyalarni amalga oshirayotganda aktivlarning yuqori likvidligini saqlashga alohida e'tibor qaratishi lozim. Aktiv operatsiyalar jami operatsiyalar tarkibida 2010-yilda 44,21 foizni tashkil etgan bo'lsa,

bu ko'rsatkich 2011-yilda 42,66 foizga yetgan, bulardan ko'rinib turibdiki, bankning aktiv operatsiyalari bank operatsiyalari tarkibida ancha salmoqqa ega;

- *passiv operatsiyalar* — bank resurslarini shakllantirish bilan bog'liq operatsiya hisoblanib, 2010-yilga nisbatan bu operatsiyaning hajmi 2011-yilda 24,5 foizga o'sgan, ya'ni 48435,8 ming AQSH dollariga ko'paygan. Bu bank resurslari miqdorining va operatsiyalar hajmining ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birgalikda, bankdan jalb qilingan resurslarni mohirlik va juda katta e'tibor bilan boshqarishni talab qiladi. Bankning bu turdagi operatsiyasi jami bank operatsiyalari tarkibida 38,84 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2010-yilga kelib, 39,19 foizga yetgan. Bundan tashqari, yana bank operatsiyalarining tarkibida passiv operatsiyalar salmoqli o'rinni egallaganligini ham ko'rishimiz mumkin;

- *vositachilik operatsiyalari* — bank resurslaridan foydalanmagan holda mijozlar va bankning sheriklari o'rtasida o'zaro vositachilik vazifasini bajarish bilan bog'liq operatsiyadir. Bu operatsiya hajmi 2010-yilda 2011-yilga nisbatan 32,15 foizga o'sgan, ya'ni 27731,9 ming dollarga ortgan. Bu operatsiyada bank resursdan foydalanmaganligi va kam xarajatliligi nuqtayi nazaridan bankning vositachilik operatsiyasini eng samarali va bozor iqtisodiyotida banklar uchun juda qo'l keluvchi operatsiya, deb hisoblashimiz mumkin. Bank o'z faoliyati davomida bu operatsiyani yanada takomillashtirib, bank operatsiyalari tarkibidagi hajmini ko'paytirishi lozim.

Bank aktiv operatsiyalari tahlili

ming AQSH dollari

T/r	Ko'rsatkichlar	2010-yil		2011-yil		O'zgarishi	
		Summa	%	Summa	%	Summa	%
1	Diling operatsiyalari	19177,4	8,52	26288	9,81	7110,6	137,08
2	Kredit operatsiyalari	141248,5	62,79	158634,4	59,22	17385,9	112,31
3	Investitsiya operatsiyalari	37617,1	16,72	50309,8	18,78	12692,7	133,74
4	Xo'jalik operatsiyalari	26922	11,97	32633,4	12,18	5711,4	121,21
Jami		224965	100	267865,6	100	42900,6	119,07

Ma'lumotlar bank aktiv operatsiyalarining 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 19,07 foizga, ya'ni 42900,6 ming dollarga o'sganligini ko'rsatadi. Buning o'zgarishiga bank tomonidan amalga oshirilgan to'rt turdagi aktiv operatsiyalar ta'sir ko'rsatadi:

- *diling operatsiyalari* — bankning qimmatli qog'ozlar, qimmatbaho toshlar va chet el valutarining oldi-sotdisi bilan bog'liq operatsiya hisoblanadi. Bu turdagi operatsiyalar 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 37,08 foizga o'sgan, ya'ni 7110,6 ming dollarga ko'paygan. Bu bank aktiv operatsiyalari summasining o'tgan yilga nisbatan ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Bankning diling operatsiyalari mablag'larning yuqori likvidiligi va yuqori daromadligini saqlashga yordam beradi. O'zbekiston moliya bozorining rivojlanishida bunday operatsiyalarning o'rni katta, shuning uchun banklar bu turdagi operatsiyalarini ko'paytira va hajmini oshira, maqsadga muvofiq bo'ladi;

- *kredit operatsiyalari* — bankning mijozlarga qaytarib berish, foiz to'lash, garov qo'yish shartlari asosida qarz berishidir. Bank tomonidan berilgan kreditlar 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 12,31 foizga o'sib, 17385,9 ming dollarga ko'paygan. Bankning kreditlash operatsiyalarining ortishi ham iqtisodiyot uchun, ham bank faoliyatining samaradorligini ta'minlash uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

- *investitsiya operatsiyalari* — bu turdagi operatsiyalar bankning boshqa tashkilot, muassasa, korxonalarning nizom sarmoyasida o'z kapitali bilan ishtirok etishidir. Investitsiya operatsiyalarini o'zining xususiyatlariga qarab, asosiy ikki turga bo'lishimiz mumkin: *real* va *moliyaviy investitsiyalar*. Real investitsiya — bu qurilish, rekonstruksiya yoki texnik qayta qurollantirish (jumladan, mashina-uskunalar sotib olish, qurilish-montaj va boshqa ishlarni bajarish), shuningdek, boshqa asosiy fondlarni sotib olish yoxud vujudga keltirish hamda ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish obyektlari normal ishlashini ta'minlash uchun zarur ishchi sarmoyaning bir qismini sotib olish bilan bog'liq ishlar uchun mijozlarga sarmoyani joylashtirishdir. Moliyaviy investitsiya esa bank tomonidan mablag'larni moliyaviy vosita, ya'ni qimmatli qog'ozlarni sotib olish asosida joylashtirish hisoblanadi. Bu operatsiya hajmi 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 33,74 foizga o'sgan, ya'ni 12692,7 ming dollarga ko'paygan. Investitsiya operatsiyalarining bunday o'sishi bankning investitsion faoliyatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

• *xo'jalik operatsiyalari* — bu bankning ichki faoliyati uchun amalga oshiriladigan operatsiya hisoblanib, bank uchun asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kam baholi tez eskiruvchi buyumlar va shu kabilarni sotib olishdir. Bu operatsiya bankka bevosita emas, balki bilvosita daromad keltiradi va bank faoliyatini amalga oshirishda asosiy rol ni o'ynaydi, shuning uchun bu operatsiyani aktiv operatsiyalar qatoriga kiritdik. Bu operatsiya 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 21,21 foizga o'sgan, ya'ni 5711,4 ming dollarga ko'paygan. Bu bank faoliyatining samarali, tezkor va mukammal ishlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bank diling operatsiyalari tahlili

ming AQSH dollari

T/r	Ko'rsatkichlar	2010-yil		2011-yil		O'zgarishi	
		Summa	%	Summa	%	Summa	%
1	Qimmatbaho metallar bilan oldi-sotdi operatsiyalari	17333,4	90,38	22662,1	86,21	5328,7	130,74
2	Qimmatli qog'ozlar bilan oldi-sotdi operatsiyalari	1844	9,62	3625,9	13,79	1781,9	196,63
Jami		19177,4	100	26288	100	7110,6	137,08

Bank diling operatsiyasining 2010-yildagi qimmatbaho metallar bilan oldi-sotdi operatsiyasi 90,38 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2011-yilda 86,21 foizga tushgan. Lekin operatsiya summasida 2010-yilga nisbatan 30,74 foiz o'sish kuzatilgan.

Qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bilan bog'liq operatsiyalar esa 2010-yilda jami diling operatsiyasi tarkibida 9,62 foizni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2011-yilga kelib 13,79 foizga yetgan. Summalardagi o'zgarish esa 2010-yilga nisbatan 96,63 foizga o'sgan, ya'ni 1781,9 ming dollarga ko'paygan.

Bank diling operatsiyasi tarkibida valuta oldi-sotdisi operatsiyasi bajarilmagan, bank kelgusi davrda chet el valutalari bilan oldi-sotdi operatsiyalarini ham amalga oshirsa, bankning daromadlilik yanada ortib, mablag'larning likvidlik darajasi ham yuqorilashadi.

Bankning kredit operatsiyalari tahlili

ming AQSH dollari

T/r	Ko'rsatkichlar	2010-yil		2011-yil		O'zgarishi	
		Summa	%	Summa	%	Summa	%
1	Berilgan qisqa muddatli kreditlar	44624,2	31,59	43057,9	27,14	-1566,3	96,49
2	Berilgan o'rta muddatli kreditlar	49787,3	35,25	52122,7	32,86	2335,4	104,69
3	Berilgan uzoq muddatli kreditlar	39461,1	27,94	58468,1	36,86	19007	148,17
4	Bankning faktoring operatsiyalari	7375,9	5,22	4985,7	3,14	-2390,2	67,59
Jami		141248,5	100	158634,4	100	17385,9	112,31

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2010-yilda berilgan kreditlarning eng salmoqli qismini o'rta muddatli kreditlar tashkil etgan bo'lsa, 2011-yilda kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli kreditlar bu o'rinni egallagan.

Kredit operatsiyalari tarkibida faktoring operatsiyalari hajmi kamayganligi kuzatiladi. Faktoring operatsiyasi — mijozlarning debitorlik qarzlari sotib olish bo'lganligi tufayli, jadvaldagi ko'rsatkichlardan bank mijozlarining debitor-kreditor qarzlari kamayganligini ko'rishimiz mumkin.

Bankning investitsiya operatsiyalari tahlili

ming AQSH dollari

T/r	Ko'rsatkichlar	2010-yil		2011-yil		O'zgarishi	
		Summa	%	Summa	%	Summa	%
1	Real investitsiya	10683,3	28,4	16401,0	32,6	5717,7	153,52
2	Moliyaviy investitsiya	26933,8	71,6	33908,8	67,4	6975,0	125,90
Jami		37617,1	100,0	50309,8	100,0	12692,7	133,74

Investitsiya operatsiyalari tarkibida moliyaviy investitsiyaning ancha salmoqqa ega ekanligi ko‘rinib turibdi. Bu bankning fond bozorida faol ishtirok etib, asosiy investitsiyalarni qimmatli qog‘ozlar sotib olishga qaratayotganligidan dalolat beradi.

Bankning xo‘jalik operatsiyalari tahlili

ming AQSH dollari

T/r	Ko‘rsatkichlar	2010-yil		2011-yil		O‘zgarishi	
		Summa	%	Summa	%	Summa	%
1	Asosiy vositalar	18414,6	68,4	21179,1	64,9	2764,4	115,0
2	Nomoddiy aktivlar	7080,5	26,3	10018,5	30,7	2938,0	141,5
3	Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar	1426,9	5,3	1435,9	4,4	9,0	100,6
	Jami	26922,0	100,0	32633,4	100,0	5711,4	121,2

Ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, bank nomoddiy aktivlarni 2010-yilga nisbatan 41,5 foizga, asosiy vositalarni esa 15 foizga oshirgan.

Bankning nomoddiy aktivlariga dasturiy ta’minot, mualliflik huquqi va patent kabilar kiradi. Bank 2011-yilda o‘zining dasturiy ta’minotini yangilaganligini ma’lumotlardan ko‘rishimiz mumkin. Dasturiy ta’minotni yangilash bank operatsiyalarining tezkorligi va mukammalligini ta’minlaydi.

Asosiy vositalar esa eng kam ish haqining 15 baravaridan yuqori qiymatga ega bo‘lgan bir yildan ortiq muddat ishlatiladigan mehnat vositalari kiradi. Bank 2011-yil davomida o‘z faoliyati uchun yangi jihozlarni sotib olgan.

Bankning passiv operatsiyalari tahlili

ming AQSH dollari

T/r	Ko‘rsatkichlar	2010-yil		2011-yil		O‘zgarishi	
		Summa	%	Summa	%	Summa	%
1	Qimmatli qog‘ozlar emis-siyasi	26922	13,62	37165,7	15,10	10243,7	138,05

2	Fondlar tashkil etish va ular summasini oshirish	11063,9	5,60	14957	6,08	3893,1	135,19
3	Boshqa moliya muassasalari mablag'larini jalb qilish	30609,9	15,49	35352,8	14,36	4742,9	115,4
4	Depozit operatsiyalari	129078,2	65,30	158634,3	64,46	29556,1	122,90
Jami		197674	100,0	246109,8	100,0	48436	124,50

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bankning passiv operatsiyalari 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 24,50 foizga o'sgan, ya'ni 48436 ming dollarga ko'paygan. Passiv operatsiyalar hajmining ortishi, bu — bankning resurslari miqdorining ko'paygani demakdir. Buning o'zgarishiga passiv operatsiyalarning quyidagi turlari hamining o'zgarishi ta'sir ko'rsatgan:

- *qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish operatsiyasi* — bank resurslarini shakllantirish maqsadida aksiya, obligatsiya va depozit sertifikatlarini o'z nomidan chiqarishidir. Bu operatsiya miqdori 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 38,05 foizga o'sgan, ya'ni 10243,7 ming dollarga ko'paygan. Bank tomonidan emissiya qilingan qimmatli qog'ozlar bankning barqaror resursi hisoblanib, bank uchun likvidlik xatarini deyarli tug'dirmaydi, lekin emissiya qilingan qimmatli qog'ozlar uchun bank katta xarajat qiladi. Shuning uchun qimmatli qog'ozlar emissiya qilish natijasida, yig'ilgan mablag'larni bank samarali yo'nalishlarga joylashtirishi talab qilinadi. Bankning qimmatli qog'ozlar emissiya qilish operatsiyasi hajmining ortishi, bank passiv operatsiyalari summasining o'tgan yilga nisbatan ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

- *fondlarni tashkil etish va ular summasini oshirish* — bu ham bank resurslarini shakllantirishga qaratilgan operatsiya hisoblanib, bank foydasi hisobidan ma'lum maqsadni amalga oshirish uchun tashkil qilinadi. Bank 2011-yilda 2010-yilga nisbatan tashkil etgan fondlarining summasi 35,19 foizga o'sgan, ya'ni 3893,1 ming dollarga ortgan. Bu natijadan biz ikki xil xulosa chiqarishimiz mumkin: birinchidan, bank maxsus fondlarni

aktivlardan ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararni qoplash uchun Markaziy bank me‘yoriy talablariga ko‘ra majburiy shakllantiradi, shu nuqtayi nazardan bankning 2011-yilda aktivlarining xatar darajasi ortganligi tufayli fondlar summasi ortgan, demak, fondlar summasining bu ko‘rinishdagi ortishi bank faoliyati uchun, albatta, salbiy bo‘lib, bank foydasining kamayishiga sabab bo‘lgan. Ikkinchidan, bank fondlarni faqatgina zararlarni qoplash uchun emas, balki iqtisodiyotning ma‘lum bir yo‘nalishini rivojlantirish, xodimlarni moddiy rag‘batlantirish, xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash va shu kabi fondlarni tashkil qilishi ham mumkin. Bu nuqtayi nazardan esa bank bu turdagi fondlarni tashkil qilish orqali mijozlarning bankka bo‘lgan ishonchini o‘rttirishi, xodimlarning ishiga bo‘lgan munosabatining ijobiylasheviga va iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishidan ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlashimiz mumkin;

- *boshqa moliya muassasalari mablag‘larini jalb qilish* — bunda bankning Markaziy bank, boshqa tijorat banklari, xalqaro va mahalliy moliya muassasalarining mablag‘larini o‘zida depozit va qarz sifatida saqlashi tushuniladi. Bankning bu operatsiyasi hajmi 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 15,49 foizga o‘sgan, ya’ni 4742,9 ming dollarga ko‘paygan. Bu ko‘rsatkichdan bankning boshqa banklar bilan vakillik munosabatlarining yaxshilanayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Bank iloji boricha o‘z faoliyati davomida imkon boricha boshqa moliya muassasalaridan qarz olishi emas, balki ularning mablag‘larini depozitlar ko‘rinishida saqlasa, maqsadga muvofiq bo‘ladi;

- *depozit operatsiyalari* — yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini shartnoma asosida muayyan yoki nomuayyan muddatgacha saqlab berish operatsiyasidir. Bank tomonidan jalb qilingan depozitlar 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 22,9 foizga o‘sgan, ya’ni 29556,1 ming dollarga ko‘paygan. Buning ko‘payishi bank uchun resurslar oqimining ortayotganligidan dalolat beradi, shu bilan birgalikda, bank uchun likvidlik xatarini ham tug‘diradi. Bank depozitlarning jamg‘arma va muddatli turlarini ko‘proq miqdorda jalb qilish orqali resurslar barqarorligiga erishishi mumkin.

Bank passiv operatsiyalari haqida to‘liq va umumiy xulosa chiqarish uchun bankni moliyaviy jihatdan tahlil qilish lozim.

Bankning vositachilik operatsiyalari tahlili

ming AQSH dollari

T/r	Ko'rsatkichlar	2010-yil		2011-yil		O'zgarishi	
		Summa	%	Summa	%	Summa	%
1	Kassa xizmatlari	11063,90	12,83	12690,70	11,13	1626,80	114,70
2	Hisob-kitob operatsiyalari	73021,40	84,67	98806,50	86,69	25785,1	135,31
3	Boshqa vositachilik operatsiyalari	2160,00	2,50	2480,00	2,18	320,00	114,81
Jami		86245,30	100,0	113977,20	100,0	27731,9	132,15

Vositachilik operatsiyalari — bu operatsiyalarda bank resurslardan foydalanmaydi, faqat daromad ko'rish maqsadida mijozlar va o'z sheriklari o'rtasida vositachi vazifasini bajaradi. Bank kassa, hisob-kitob, brokerlik va shu kabi operatsiyalarda vositachi sifatida ishtirok etadi. Bankning vositachilik operatsiyalari hajmi 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 32,15 foizga o'sgan, ya'ni 27731,9 ming dollarga ko'paygan. Bu natijaning o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- *kassa operatsiyalari* — bu bankning naqd pullarni mijozlardan qabul qilish va ularga berish bilan bog'liq operatsiyasi hisoblanadi. Bank mijozlarga O'zbekiston qonunchiligida belgilangan hollarda hisob raqamlaridagi pul mablag'larini naqd shaklda beradi va me'yoriy hujjatlarda belgilangan tartibda ulardan naqd pullarni qabul qiladi. 2011-yilda bankning kassa operatsiyalarining hajmi 2010-yilga nisbatan 14,7 foizga o'sgan, ya'ni 1626,8 ming dollarga ko'paygan. Banklar jamiyatdagi pul muomalasini boshqaruvchi va tartibga soluvchi muassasa bo'lganligi tufayli o'zining kassa operatsiyalarini yuridik va jismoniy shaxslarning naqd pul mablag'larini o'ziga jalb qilishga doim harakat qilishlari kerak. Chunki jamiyatda naqd pul massasining ortib ketishi inflatsiyani keltirib chiqaradi. Lekin bank mijozlarning bankka bo'lgan ishonchini yo'qotmaslik uchun belgilangan tartibda mijozlarning hisobvaraqlaridagi pul mablag'larini naqd holda o'z vaqtidan kechiktirmay berishlari lozim;

- *hisob-kitob operatsiyalari* — bu bankning mijozlar o'rtasidagi vositachilik operatsiyasining keng tarqalgan turi bo'lib, bir

mijozning hisobvaragʻidagi pul mablagʻlarini ikkinchi bir mijoz hisobvaragʻiga naqdsiz shaklda oʻtkazish demakdir. Bu operatsiya hajmi 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 35,31 foizga oʻsgan, yaʼni 25785,1 ming dollarga koʻpaygan. Bu bank mijozlarining moliyaviy quvvati oshganligini koʻrsatadi. Bank bu koʻrsatkichni yanada oshirish uchun oʻzlarining naqd pulsiz hisob-kitoblarini takomillashtirishi lozim. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mijozlar sifatli va tezkor operatsiyalarni amalga oshiruvchi banklarning mijozlari boʻlishni xohlaydilar. Demak, bu operatsiyani takomillashtirish va rivojlantirish mijozlarni bankka jalb qilish vositasi boʻlib ham xizmat qilishi mumkin;

- *bankning boshqa turdagi vositachilik operatsiyalari* esa 2010-yilga nisbatan 2011-yilda 14,81 foizga oʻsgan, yaʼni 320 ming dollarga koʻpaygan. Bu bank vositachilik operatsiyalari summasing ortishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Bankning kassa operatsiyalari tahlili

ming AQSH dollari

T/r	Koʻrsatkichlar	Yil boshiga qoldiq	Debet aylanma	Kredit aylanma	Yil oxiriga qoldiq
1	Kassalar orqali operatsiyalar	6417,1	98875,3	101234,7	4057,7
2	Pul almashtirish shoxobchalari orqali operatsiyalar	3097,9	53627,3	49787,6	6937,6
3	Bankomatlar orqali operatsiyalar	1548,9	15082,7	14936,3	1695,4
	Jami	11063,90	167585,3	165958,5	12690,70

2011-yil davomida bank kassasiga 98875,3 ming dollar ekvivalentida naqd pul mablagʻlari qabul qilinib, 101234,7 ming dollar ekvivalentida mijozlarga naqd pullar berilgan, natijada bank kassasidagi yil oxiridagi qoldiq 4057,7 ming dollar ekvivalentidagi pul mablagʻlarini tashkil etgan.

Pul almashtirish shoxobchalari orqali bank 53627,3 ming dollar ekvivalentidagi pul mablagʻlarini qabul qilib, 49787,6 ming dollar ekvivalentida mijozlarga naqd pullar bergan. Pul almash-tirish shoxobchalaridagi yil oxiridagi qoldiq 6937,6 ming dollarni tashkil etgan.

2011-yil davomida bank tomonidan 15082,7 ming dollar ekvivalentida pul qo'yilib, bu pullarning 14936,3 ming dollar ekvivalenti miqdoridan mijozlar foydalangan. Yil oxirida bankomatlardagi naqd pul qoldig'i 1695,4 ming dollarni tashkil etgan.

Hisob-kitob operatsiyalari tahlili

ming AQSH dollari

T/r	Ko'rsatkichlar	Yil boshiga qoldiq	Debet aylanma	Kredit aylanma	Yil oxiriga qoldiq
1	To'lov topshiriqnomalari orqali	73021,4	460034,8	449205,1	98806,5
2	To'lov talabnomalari orqali		76672,5	74867,5	
3	Memorial orderlar orqali		87625,7	85562,9	
4	Akkreditivlar orqali		32859,6	32086,1	
5	Inkasso topshiriqnomalari orqali		317643,1	310165,4	
6	Hisob-kitob cheklari orqali				
7	Plastik kartochkalar orqali		120485,3	117648,9	
Jami			1095321	1069535,9	

Hisob-kitob operatsiyalari banklarning Markaziy bankdagi rezident va norezident boshqa banklardagi vakillik hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladi. Bankning vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lari yil boshida 73021,4 ming dollar ekvivalentini tashkil etib, 2011-yil mobaynida bu hisobvaraqlarning debet aylanmasi 1095321 ming dollarni tashkil etib, kredit aylanmasi esa 1069535,9 ming dollarni tashkil etdi. Yil oxiriga borib vakillik hisobvaraqlaridagi qoldiq 98806,5 ming dollar miqdorini qayd etdi.

Bank operatsiyalarining samarasi va sifatini aniqlashda, bank balansi tahlil qilinishi lozim. Bank balansidan bankning moliyaviy holati haqida to'liq ma'lumot olish mumkin.

5.3. Bank balansi tahlili

Bank balansi — bank mablag'lari va ularning tashkil topish manbalarining ma'lum bir hisobot sanasiga tengligi. Bank balansi olti qismdan iborat, ya'ni aktiv, majburiyatlar, kapital, daromad, xarajat va ko'zda tutilmagan holatlar.

Bank faoliyatini qay darajada amalga oshirayotganligini bilish uchun bank balansini tahlil qilishimiz kifoya. Tahlil qilish, avvalo, tahlil subyektidan tahlil obyekti haqida to'liq tushunchani talab qiladi. Bank balansini faqatgina uning nimaligi, mohiyatini tushungan odamgina tahlil qilishi mumkin.

Bank balansining tarkibiy qismlari quyidagi tavsiflarga ega:

- *aktivlar* — bu bank resurslarining ularning foydalanish maqsadlari bo'yicha qiymati, bank faoliyatining natijasi bo'yicha kelgusi daromad olish manbayi;

- *passivlar* — bank aktivlarining tashkil topish manbayi hisoblanib, u kapital va majburiyatdan tashkil topadi. Kapital — bankning o'zlik mablag'larining manbayi. Bank kapitali o'zida bankning nizom sarmoyasi, qo'shimcha sarmoya, zaxira sarmoyasi va taqsimlanmagan foydani mujassamlashtiradi. Majburiyatlar bankning jalb qilingan mablag'laridir, u o'zida jismoniy va yuridik shaxslarning depozitlari, Markaziy va boshqa banklarning vakillik hamda depozit hisobvaraqlaridagi pul mablag'larini, bankning boshqa banklar va moliya muassasalaridan olgan qarzlarini hamda boshqa majburiyatlarni mujassamlashtiradi;

- *daromadlar* — bank faoliyatining natijasi. Bank daromadlarga bank operatsiyalarini amalga oshirish orqali erishadi;

- *xarajatlar* — bank resurslarini jalb qilish, operatsiyalarni amalga oshirish va bank faoliyatini amalga oshirish uchun sarflanadigan barcha chiqimlardir;

- *ko'zda tutilmagan holatlar* — balansdan tashqari alohida hisobvaraqlar turkumi. Bunda qat'iy hisobda turuvchi hujjatlar, joyini topmagan pullar va shu kabilar joylashadi.

Bank aktivlari tahlili

ming AQSH dollari

T/r	Hisob- vara- raqami	Hisobvara- lar nomi	2010-yil		2011-yil		O'zgarishi	
			Summa	%	Summa	%	Summa	%
Aktivlar								
1	10100	Kassadagi naqd pul va boshqa pul hujjatlari	11063,9	3	12690,7	2,8	1626,9	114,7
2	10300	MBdagi hisob- varaqlar	36879,5	10	46683,8	10,3	9804,3	126,6

3	10500	Boshqa banklardagi hisobvaraqlar	36141,9	9,8	52122,7	11,5	15980,8	144,2
4	10700	Qimmatli qog'ozlar savdosi uchun mo'ljallangan hisobvaraqlar	17333,4	4,7	22662,1	5	5328,7	130,7
5	10900	Qimmatbaho metallar savdosi uchun mo'ljallangan hisobvaraqlar	1844,0	0,5	3625,9	0,8	1782,0	196,6
6	11100	Sotib olingan debitorlik qarzlari	7375,9	2	4985,7	1,1	-2390,2	67,6
7	11300	Sotib olingan veksellar	0,0	0	0,0	0	0,0	0,0
8	11500	Mijozlarning akkreditiv trast hujjatlari bilan kafolatlangan trattalar bo'yicha majburiyatlari	7744,7	2,1	11784,3	2,6	4039,6	152,2
9	11700	Bankning to'lanmagan akseptlari bo'yicha mijozlarning majburiyatlari	5531,9	1,5	5892,1	1,3	360,2	106,5
10	11800	REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlar	25815,7	7	30820,4	6,8	5004,7	119,4
11	11900–13200	Bank tomonidan berilgan qisqa muddatli ssudalar	44624,2	12,1	43057,9	9,5	-1566,3	96,5
12	13300–14400	Bank tomonidan berilgan o'rta muddatli ssudalar	49787,3	13,5	52122,7	11,5	2335,4	104,7
13	14500–15500	Bank tomonidan berilgan uzoq muddatli ssudalar	39461,1	10,7	58468,1	12,9	19007,0	148,2
14	15700	Sud jarayonidagi ssudalar	1106,4	0,3	0,0	0	-1106,4	0,0
15	15900	Investitsiyalar	37617,1	10,2	50309,8	11,1	12692,7	133,7

16	16100	Bosh bank/bo'limlardan olinadigan mablag'lar	1106,4	0,3	3625,9	0,8	2519,5	327,7
17	16300	Aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar	9219,9	2,5	15410,2	3,4	6190,3	167,1
18	16500	Bankning mulki	22127,7	6	27647,7	6,1	5520,0	124,9
19	16700	Bankning boshqa xususiy mulklari	4794,3	1,3	4985,7	1,1	191,3	104,0
20	19900	Boshqa aktivlar	9219,9	2,5	6345,4	1,4	-2874,5	68,8
		Aktivlar bo'yicha jami	368795	100,0	453241	100,0	84446,0	122,9

Bank aktivlari 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 22,9 foizga o'sgan, ya'ni 84446 ming dollarga ko'paygan. Buning o'zgarishiga bir nechta omillar ta'sir ko'rsatgan.

Kassadagi naqd pul va boshqa pul hujjatlari 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 14,7 foizga o'sgan, ya'ni 1626,9 ming dollarga ko'paygan. Kassadagi naqd pullarning ko'payishi bankning likvidlik darajasining yuqori bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Naqd pullar xatardan xoli bo'lgan aktivlar hisoblanadi, lekin ular daromad keltirmaydi. Naqd pullar jami aktivlar tarkibida 2010-yilda 3 foizni, 2011-yilda esa 2,8 foizni tashkil etgan.

Bankning Markaziy bankdagi pul mablag'lari 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 26,6 foizga o'sib, 9804,3 ming dollarga ko'paygan. Bu hisobvaraqlardagi pul mablag'larini uchga bo'lishimiz mumkin, birinchisi, *Nostro* hisobvaraqlaridagi pul mablag'lari, bank bu pul mablag'laridan mijozlarning va o'zining hisob-kitoblarini amalga oshirish uchun foydalanadi, ikkinchisi, *Vostro*-overdraft hisobvarag'i, bu hisobvaraq orqali hisob-kitob operatsiyalarini bajarishdan tashqari Markaziy bank kredit liniyalaridan foydalanish uchun ishlatiladi, uchinchisi, majburiy zaxira hisobvarag'i, bu hisobvaraqdan bankning likvidlik darajasini minimal darajada saqlab turish uchun foydalaniladi. Bu mablag'lar bankning yuqori likvid, xatardan xoli mablag'laridir.

Boshqa banklardagi hisobvaraqlar — bank bu mablag'lardan ham mijozlarning va o'zining hisob-kitoblarini amalga oshirish uchun foydalanadi. Bankning boshqa banklardagi mablag'lari 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 44,2 foizga ortgan, ya'ni 15980,8 ming dollarga ko'paygan. Bankning vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lari 2010-yilda jami aktivlar tarkibida 9,8 foizni tashkil

qilgan bo'lsa, 2011-yilda bu ko'rsatkich 11,5 foizga yetgan. Bu natijadan bankning boshqa banklar bilan o'zaro vakillik munosabatlarining rivojlanayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Aktivlar tarkibida sotib olingan debitorlik qarzlari, bank tomonidan berilgan qisqa muddatli ssudalar va boshqa aktivlarda o'tgan yilga nisbatan pasayish kuzatilgan. Qolgan aktivlarning bar-chasida o'sish kuzatilgan.

Umumiy xulosa qilib aytganda, bank o'z aktivlarini ko'proq qimmatli qog'ozlar, qimmatbaho metallar savdosi, investitsiya va uzoq muddatli kreditlarga joylashtirsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari, bank chet el valutalari bilan operatsiyalarga ko'proq e'tibor qaratishi lozim.

Bank passivlari tahlili

ming AQSH dollari

T/r	Hisob- vara- raqami	Hisobvara- q-lar nomi	2010-yil		2011-yil		O'zgarishi	
			Summa	%	Summa	%	Summa	%
Passiv								
Majburiyatlar								
1	20200	Talab qilib olin- guncha saqlana- digan depozitlar	51631,3	14	49856,5	11	−1774,8	96,6
2	20400	Jamgʻarma depozitlar	29503,6	8	38525,5	8,5	9021,9	130,6
3	20600	Muddatli depo- zitlar	35035,5	9,5	52122,7	11,5	17087,2	148,8
4	20800	MBning hisob- varaqlari	18439,8	5	24021,8	5,3	5582,0	130,3
5	21000	Boshqa banklar- ning hisobvara- qlari	11063,9	3	17223,2	3,8	6159,3	155,7
6	21200	Boshqaruv cheklari	4794,3	1,3	4985,7	1,1	191,3	104,0
7	21400	Bankning toʻlan- magan akseptlari	0,0	0	0,0	0	0,0	0,0
8	21600	Olingan qisqa muddatli ssudalar	4425,5	1,2	3172,7	0,7	−1252,9	71,7
9	21800	Olingan oʻrta muddatli ssudalar	1475,2	0,4	4985,7	1,1	3510,5	338,0

10	22000	Olingan uzoq muddatli ssudalar	13276,6	3,6	15863,4	3,5	2586,8	119,5
11	22200	Bosh bank/bo'limlarga to'lanadigan mablag'lar	11432,6	3,1	11331,0	2,5	-101,6	99,1
12	22300	<i>REPO</i> bo'yicha sotilgan qimmatli qog'ozlar	14751,8	4	19036,1	4,2	4284,3	129,0
13	22400	Majburiyatlar bo'yicha hisoblangan foizlar	11432,6	3,1	12237,5	2,7	804,9	107,0
14	22600	Mijozlarning boshqa depozitlari	12907,8	3,5	18129,6	4	5221,8	140,5
15	23200	Kliring tranzaksiyalari	6638,3	1,8	6798,6	1,5	160,3	102,4
16	23400	Hukumatga tegishli daromad va boshqa tushumlar	22127,7	6	20849,1	4,6	-1278,6	94,2
17	23600	Bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	12170,2	3,3	18129,6	4	5959,4	149,0
18	29800	Boshqa majburiyatlar	5531,9	1,5	5438,9	1,2	-93,0	98,3
Majburiyatlar bo'yicha jami			266638,8	72,3	322707,6	71,2	56068,8	121,0
Kapital								
1	30300	Aksiyadorlik kapitali	77447,0	21	96540,3	21,3	19093,4	124,7
2	30600	Qo'shimcha kapital	4425,5	1,2	5892,1	1,3	1466,6	133,1
3	30900	Zaxira kapitali	11063,9	3	14957,0	3,3	3893,1	135,2
4	31200	Taqsimlanmagan foyda	9219,9	2,5	13144,0	2,9	3924,1	142,6
Kapital bo'yicha jami			102156,2	27,7	130533,4	28,8	28377,2	127,8
Passiv bo'yicha jami			368795	100,0	453241	100,0	84446,0	122,9

Bank passivlari summasi aktivlarga muvofiq ravishda 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 22,9 foizga o'sgan. Passivlar tarkibida 2010-yilga nisbatan bank kapitali miqdorining o'sishi kuzatilgan. 2011-yilda bank nizom sarmoyasini 19093,4 ming dollarga oshirgan, shu o'rinda taqsimlanmagan foydaning o'tgan yilga nisbatan 42,6 foizga oshganini alohida ta'kidlash joiz.

Majburiyatlar ham 21 foizga o'sgan, bunga muddatli depozitlarni, boshqa banklarning mablag'larini va bank qimmatli qog'ozlariga xaridorlarni jalb qilish orqali erishilgan.

Bank daromadlari tahlili

ming AQSH dollari

T/r	Hisob- vara- raqami	Hisobvara- lar nomi	2010-yil		2011-yil		O‘zgarishi	
			Summa	%	Summa	%	Summa	%
Daromadlar								
1	40200	O‘zRMBdagi hisobvaraqlar bo‘yicha foizli daromadlar	2212,8	3,8	2567,6	4,0	354,8	116,0
2	40400	Boshqa banklar-dagi hisobvaraqlar bo‘yicha foizli daromadlar	2168,5	3,7	2918,9	4,5	750,4	134,6
3	40600	Qimmatli qog‘oz-lar savdosi uchun mo‘ljallangan hisobvaraqlar bo‘yicha foizli daromadlar	2253,3	3,8	3399,3	5,3	1146,0	150,9
4	40800	Sotib olingan veksellar bo‘yicha foizli daromadlar		0,0		0,0	0,0	0,0
5	41000	Mijozlarning majburiyatlari bo‘yicha hisob-langan foizlar	1471,5	2,5	2356,9	3,7	885,4	160,2
6	41200	Bankning to‘lan-magan akseptlari bo‘yicha mijoz-larning majbu-riyatlari bo‘yicha hisoblangan foizlar	553,2	0,9	589,2	0,9	36,0	106,5
7	41400– 42600	Bank tomonidan berilgan qisqa muddatli ssudalar bo‘yicha foizli daromadlar	13387,3	22,7	12056,2	18,7	–1331,0	90,1

8	42800 –43800	Bank tomonidan berilgan oʻrta muddatli ssudalar boʻyicha foizli da- romadlar	12944,7	21,9	11467,0	17,8	–1477,7	88,6
9	43900 –44600	Bank tomonidan berilgan uzoq muddatli ssudalar boʻyicha foizli daromadlar	6313,8	10,7	8185,5	12,7	1871,8	129,6
10	44700	Sud jarayonidagi ssudalar boʻyicha foizli daromadlar	221,3	0,4	0,0	0,0	–221,3	0,0
11	44800	Investitsiyalar boʻyicha foizli daromadlar	5266,4	8,9	6540,3	10,2	1273,9	124,2
12	44900	Boshqa foizli daromadlar	785,6	1,3	884,0	1,4	98,4	112,5
13	45000	Qimmatli qogʻoz- lar bilan amalga oshiriladigan <i>REPO</i> bitimlari boʻyicha foizli daromadlar	3614,2	6,1	4931,3	7,7	1317,1	136,4
14	45200	Foizsiz daromadlar	2160,0	3,7	2480,0	3,9	320,0	114,8
15	45400	Xorijiy valutalar- dagi foyda	3844,0	6,5	4100,0	6,4	256,0	106,7
16	45600	Tijorat opera- tsiyalaridan olingan foyda	349,0	0,6	364,0	0,6	15,0	104,3
17	45800	Investitsiyalardan olingan foyda va dividendlar	1035,0	1,8	1133,0	1,8	98,0	109,5
18	45900	Boshqa foizsiz daromadlar	398,0	0,7	430,0	0,7	32,0	108,0
Daromadlar boʻyicha jami			58978,5	100,0	64403,1	100,0	5424,6	109,2

Bank daromadlari 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 9,2 foizga oʻsgan, yaʼni 5424,6 ming dollarga koʻpaygan. Bu, albatta, ijobiy koʻrsatkich, lekin bank bu natijani yanada yaxshilashi mumkin.

Maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki, bank daromadlarining asosi qismini berilgan kreditlardan olinadigan foizlar tashkil qiladi. Boshqa operatsiyalardan keladigan daromadlar miqdori esa juda

past. Bank boshqa turdagi operatsiyalardan daromad olishi uchun, avvalo, operatsiyalari turini ko'paytirishi va resurslarning ma'lum qismini ularga yo'naltirishi lozim.

Bank xarajatlari tahlili

ming AQSH dollari

T/r	Hisob- vara- raqami	Hisobvaraqa- lar nomi	2010-yil		2011-yil		O'zgarishi	
			Summa	%	Summa	%	Summa	%
Xarajatlar								
1	50100	Talab qilib olin- guncha saqlana- digan depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar	2065,3	5,7	1495,7	3,6	−569,6	72,4
2	50600	Jamg'arma depo- zitlar bo'yicha foizli xarajatlar	5900,7	16,4	6934,6	16,5	1033,9	117,5
3	51100	Muddatli depo- zitlar bo'yicha foizli xarajatlar	8758,9	24,3	11467,0	27,3	2708,1	130,9
4	51600	O'zRMBning hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar	922,0	2,6	960,9	2,3	38,9	104,2
5	52100	Boshqa banklar- ning hisobvaraqa- lari bo'yicha foizli xarajatlar	553,2	1,5	688,9	1,6	135,7	124,5
	52600	Bankning to'lan- magan akseptlari bo'yicha foizli xarajatlar	—	0,0	—	0,0	0,0	0,0
7	53100	Qisqa muddatli ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar	796,6	2,2	507,6	1,2	−289,0	63,7
8	53600	O'rta muddatli ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar	206,5	0,6	648,1	1,5	441,6	313,8
9	54100	Uzoq muddatli ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar	1593,2	4,4	1586,3	3,8	−6,9	99,6

10	54200	Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlar	2920,9	8,1	3988,5	9,5	1067,7	136,6
11	54300	Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan <i>REPO</i> bitimlari bo'yicha foizli xarajatlar	1032,6	2,9	1142,2	2,7	109,5	110,6
12	54900	Boshqa foizli xarajatlar	652,0	1,8	580,0	1,4	-72,0	89,0
13	55100	Foizsiz xarajatlar	345,0	1,0	350,0	0,8	5,0	101,4
14	55300	Xorijiy valutalar-dan ko'rilgan zararlar						
15	55600	Tijorat operatsiyalaridan ko'rilgan zararlar						
16	55800	Investitsiyalardan ko'rilgan zararlar						
17	55900	Boshqa foizsiz xarajatlar						
18	56100	Bank xizmatchilarining ish haqi va ular uchun qilingan boshqa xarajatlar	1620,0	4,5	1830,0	4,4	210,0	113,0
19	56200	Ijara va ta'minot xarajatlari	221,0	0,6	310,0	0,7	89,0	140,3
20	56300	Xizmat safari va transport xarajatlari	57,0	0,2	60,0	0,1	3,0	105,3
21	56400	Ma'muriy xarajatlar	103,0	0,3	140,0	0,3	37,0	135,9
22	56500	Reprezentatsiya va xayriya	34,0	0,1	60,0	0,1	26,0	176,5
23	56600	Eskirish xarajatlari	3319,0	9,2	4147,0	9,9	828,0	124,9
24	56700	Sug'urta, soliq va boshqa xarajatlar	1340,0	3,7	1450,0	3,4	110,0	108,2
25	56900	Daromad solig'i	3620,0	10,0	3700,0	8,8	80,0	102,2
Xarajatlar bo'yicha jami			36060,8	100,0	42046,9	100,0	5986,0	116,6

Bank xarajatlari 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 16,6 foizga o'sgan, ya'ni 5986 ming dollarga ko'paygan. Bank xarajatlarining bu darajada o'tishiga jamg'arma depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar, muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar, boshqa banklarning hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar, o'rta muddatli ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar, chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlar, ijara va ta'minot xarajatlari, ma'muriy xarajatlar, reprezentatsiya va xayriya xarajatlari sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Bank yuqori samaraga erishish uchun faoliyati davomida qiladigan xarajatlari miqdorini kamaytirishi lozim.

Ko'zda tutilmagan holatlar tahlili

ming AQSH dollari

T/r	Hisob- vara- raqami	Hisobvara- q- lar nomi	2010-yil		2011-yil		O'zgarishi	
			Summa	%	Summa	%	Summa	%
Ko'zda tutilmagan holatlar								
1	90300	Qimmatli qog'oz- lar blanklari	1780	3,4	1932	3,0	152	108,5
2	90900	Savdoga oid mo- liyalashlar	1354	2,6	1166	1,8	−188	86,1
3	91500	Aktivlar bo'yicha hisoblangan foiz- lar va vositachilik haqlari	9219	17,7	15410	23,9	6191	167,2
4	91800	Bankning ssuda majburiyatlari	535	1,0	244	0,4	−291	45,6
5	91900	Qarzdorlarning ssuda majburiyat- lari	1892	3,6	2360	3,7	468	124,7
6	92700	Forvard tranzak- siyalar	2350	4,5	1421	2,2	−929	60,5
7	93600	Saqlanayotgan qimmatli qog'oz- lar va boshqa qimmatbaho bu- yumlar	4667	9,0	5389	8,4	722	115,5

8	94500	Garov sifatidagi qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquqlar	28970	55,7	35245	54,7	6275	121,7
9	95400	Boshqa ko'zda tutilmagan holatlar	1234	2,4	1320	2,0	86	107,0
Ko'zda tutilmagan holatlar bo'yicha jami			52001	100,0	64487	100,0	12486	124,0

Bankning ko'zda tutilmagan holatlari tarkibida qimmatli qog'ozlar blanklari 8,5 foiz, aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar va vositachilik haqlari 67,2 foiz, qarzдорlarning ssuda majburiyatlari 24,7 foiz, saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar va boshqa qimmatbaho buyumlar 15,5 foiz, garov sifatidagi qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquqlar 21,7 foiz va boshqa ko'zda tutilmagan holatlar 7 foizga o'sganligini jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

Savdoga oid moliyalashlar 13,9 foiz, bankning ssuda majburiyatlari 54,4 foiz va forward tranzaksiyalar 39,5 foizga pasaygan.

5.4. Bank moliyaviy natijalari tahlili

Bank faoliyati samaradorligi — bankning moliyaviy natijalarini o'zida mujassamlashtiradi. Bankning moliyaviy natijalari hisobot yilidagi bankning daromad va xarajatlari, foyda va zararlari haqida ma'lumot beradi. Quyidagi jadvalda bank moliyaviy natijalari aks etgan:

Moliyaviy natijalar tahlili

ming AQSH dollari

T/r	Ko'rsatkichlar	2010-yil		2011-yil		O'zgarishi	
		Daromad	Xarajat	Daromad	Xarajat	Summa	%
1	Jami foizli daromadlar	47578,4	X	51064,9	X	3486,5	107,3
2	Jami to'langan foizlar	X	7201,8	X	8452,7	1250,9	117,4
3	Jami foizsiz daromadlar	5626	X	6027	X	401	107,1

4	Jami foizsiz xarajatlar	X	6694	X	7997	1303	119,5
5	Daromad solig'i to'languncha bank foydasi (zarar)	39308,6	—	40642,2	—	1333,6	103,4
6	Daromad solig'i	X	3620	X	3700	80	102,2
	Hisobot davridagi sof foyda (zarar)	35688,6	—	36942,2	—	1253,6	103,5

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bankning moliyaviy natijasi, ya'ni foydasi 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 3,5 foizga o'sib, o'tgan yilga nisbatan 1253,6 ming dollarga ko'payganligini ko'rsatadi. Buning o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan:

- *bankning foizli daromadlari* — bu bankning resurslarni joylashtirish natijasida davriy ravishda oladigan bank haqi hisoblanadi. Foizli daromadlar 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 7,3 foizga o'sgan, ya'ni 3486,5 ming dollarga ko'paygan. Bu bank foydasining o'tgan yilga nisbatan ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan;

- *to'langan foizlar* — bankning jalb qilingan resurslariga davriy ravishda qiladigan xarajati. Bu turdagi xarajatlar 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 17,4 foizga o'sgan, ya'ni 1250,9 ming dollarga ko'paygan. Bu bank foydasining ortishiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatgan, bank bu xarajatlarni kamaytirishga harakat qilishi lozim;

- *foizsiz daromadlar* — bunga bankning turli operatsiyalardan ko'rgan foydalari, vositachilik va xizmat haqlari kiradi. Bankning bu daromadlari 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 7,1 foizga o'sgan, ya'ni 401 ming dollarga ko'paygan. Bu bank foydasining ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

- *foizsiz xarajatlar* — bunga bank to'laydigan turli to'lovlar, operatsiyalardan ko'rilgan zarar va shu kabilar kiradi. Bu xarajatlar 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 19,5 foizga o'sgan, ya'ni 1303 ming dollarga ortgan. Bu xarajat ham bank foydasining o'tgan yilga nisbatan ortishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan;

- *bankning daromad solig'i to'langunga qadar foydasi* — 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 3,4 foizga o'sgan, ya'ni 1333,6 ming dollarga ortgan. Bu natija bankning jami daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi farqni tashkil qiladi;

- *bankning daromad solig'i esa* 2010-yilga nisbatan 2011-yilda 2,2 foizga o'sganligi ko'rinadi. Bunga, o'z navbatida, soliq obyektining, ya'ni bank daromadlarining ortganligi sabab bo'lgan.

5.5. Bankning pul mablag'lari harakati tahlili

Pul mablag'lari harakati bankning umumiy faoliyatidagi pul mablag'larining kirimi va chiqimini aks ettiradi. Pul mablag'larining harakatini tahlil qilishda bankning operatsion faoliyati natijalari, investitsion, moliyaviy faoliyati natijalaridagi pul mablag'larining sof o'zgarishi asos bo'ladi. Sof o'zgarish deyilganda, bank mablag'larining hisobot davridagi ko'rsatkichlarning o'tgan davrlarga nisbatan farqi tushuniladi.

Keltirilgan jadvalda bankning pul mablag'lari harakati 2010—2011-yillar misolida keltirilgan.

Pul mablag'lari harakati tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar	Ming AQSH dollari
1	Operatsion faoliyatdan sof pul mablag'lari	101961,6
2	Investitsion faoliyatdan pul mablag'lari	—249,4
3	Moliyaviy faoliyatdan pul mablag'lari	39126,5
4	Pul mablag'lari va ular ekvivalentlarining sof ko'payishi	140838,7
5	Yil boshidagi pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari	112901
Yil oxiridagi pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari		253739,7

Ma'lumotlarga asoslanib, hisobot davrida bank pul mablag'larining yil boshiga nisbatan ko'payganligini aytishimiz mumkin. Hisobot davri boshida bankning pul mablag'lari 112901 ming dollarni tashkil etgan bo'lsa, hisobot davri oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich 253739,7 ming dollarni tashkil etgan, pul mablag'larining hisobot davridagi sof ko'payishi esa 140838,7 ming dollar bo'lgan. Bankning bunday natijaga erishishiga operatsion faoliyat bo'yicha 101961,6 ming dollar, moliyaviy faoliyatdagi 39126,5 ming dollar sof ko'payish ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Lekin investitsion faoliyatda pul mablag'larining kamayishi kuzatilgan.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Bank moliyaviy hisobotlari nimalardan iborat?
2. Bank operatsiyalari haqida tushuncha bering.
3. Aktiv operatsiyalar nima va ularga ta'sir etuvchi omillar.
4. Passiv operatsiyalar nima va ularga ta'sir etuvchi omillar.
5. Bankning vositachilik operatsiyalari nima va ularga ta'sir etuvchi omillar.
6. Bank balansining tarkibiy tuzilishi qanday?
7. Bank aktivlari nima?
8. Bank passivlari nima?
9. Bank daromadlari va xarajatlari haqida tushuncha bering.
10. Bankning moliyaviy natijalari deganda nimalarni tushunasiz?
11. Moliyaviy natijalarga ta'sir etuvchi omillar nimalardan iborat?
12. Bankning pul mablag'lari harakati haqida tushuncha bering.
13. Pul mablag'lari harakatiga ta'sir etuvchi omillarni sanang.

VI bob. BANK MENEJMENTIDA MARKETINGNING AHAMIYATI

6.1. Marketing fanining asosiy rivojlanish bosqichlari

Marketing faoliyatini rejalashtirish xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni, barcha mavjud moddiy resurslarni aniqlashni, talab va taklifni rejalashtirishni va xizmatlarni sotishni, iste'molchilarga o'z vaqtida va to'liq yetkazib berishni, moddiy resurslardan to'la va tejab-tergab foydalanish kabilarni o'z ichiga oladi. Bank faoliyatini samarali rejalashtirish uchun quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilish zarur:

- rejalashtirish — bank tashqi muhitidagi o'zgarishlarga o'z vaqtida javob berish kerak;
- rejalashtirish bilan, eng avvalo, keyinchalik bu rejani hayotga tatbiq qiluvchilar shug'ullanishi kerak;
- rejalashtirishga mas'ul kishining saviyasi bank resurslarini taqsimlovchi saviyaga mos kelishi kerak.

Marketingni rejalashtirish quyidagi bosh muammolarni yechishga qaratilishi zarur:

- maqsadlarni aniqlash (tanlangan bank xizmatlari bozor segmentlariga xizmatlarni tabaqalashtirish, yangi xizmatlar va bank xizmatlari bozorlarini o'zlashtirish, raqobatdoshlik muammolarini hal qilish);
- alohida rejalar zahirasi va tuzilmasini, o'zaro bog'liqlikdagi tavsifini shakllantirish;
- rejalashtirish uchun zarur bo'lgan dastlabki ma'lumotlar tabiatini aniqlash;
- rejalashtirish jarayonini va chegarasini tashkil qilishni belgilash.

Tashqi bank xizmatlari bozorga chiqayotgan bank, birinchi navbatda, xizmatlar taklif qilishi kerak, agar bu raqobatdosh xizmatlar bo'lsa, ikkinchi bosqichda bank xizmatlari bozori tanlanadi, uchinchi bosqichda mavjud xizmatlar va bank xizmatlari

bozor istiqbolidan kelib chiqib, bankning har bir bo‘limiga topshiriq beriladi. Rejalashtirishda juda muhim bosqich — bu narx belgilashdir.

Marketing faoliyati uchun ajratiladigan mablag‘ ham rejalashtirishda katta ahamiyatga ega. Mablag‘ni marketing xizmatining barcha bo‘limlariga to‘g‘ri taqsimlash kerak.

Rejalashtirish tadbirlari strategik muammolar bilan mashg‘ul yuqori darajadagi boshliqlar va taktik vazifalarni hal etuvchi quyi rahbarlarning o‘zaro aloqasida olib borilishi lozim.

Rejalashtirish tadbirlari chiziqli emas, balki doiraviy jarayondir. «Yuqori»da qabul qilingan reja, marketing tashqi muhitidagi vaziyatga qarab, «Past»da o‘zgartirilishi mumkin.

Bank o‘z faoliyatiga strategik yondashmasa, kapitansiz kemaga o‘xshab qoladi.

Strategiya — harakatlarning bosh dasturidir. Strategiya bosh maqsadlarni ifodalaydi.

Strategik rejalashtirish mohiyati va xususiyatlari quyidagilardir:

1. Strategik rejalashtirish bank rahbarlarini uzoq muddatli vazifalarni hal etish uchun joriy foydani maksimallashtirishdan tiyib turadi.

2. Bank rahbarlarini yuz bergan o‘zgarishlarga javob ta’siri ko‘rsatishdan ko‘ra tashqi muhitdagi kelajakda bo‘ladigan o‘zgarishlarga yo‘naltiradi.

3. Strategik rejalashtirish bank rahbariyatiga nisbatan cheklangan resurslar taqsimlanishining asoslangan imtiyozini belgilash, aniq maqsadlarni belgilab barcha resurslarni ushbu maqsadlarga erishish uchun safarbar qilish imkonini beradi.

Bank miqyosida strategik rejalashtirish quyidagi asosiy unsurlarni o‘z ichiga oladi: strategik, ya’ni yirik maqsadlarni qo‘yish, resurslar va bank imkoniyatlarini baholash, tashqi tamoyillarni tahlil qilish, faoliyatning muqobil yo‘llarini baholash, istiqbol uchun strategiya belgilash, mukammal joriy rejalarni tayyorlash, dastur va budjetni aniqlash, ilgari surilgan maqsad va vazifalarni belgilangan mezonlar asosida baholash hamda nazorat qilish.

Shunday qilib, marketingda rejalashtirish — bu uzluksiz davriy jarayondir, bunda eng yuksak bank imkoniyatlarini bank xizmatlari bozor imkoniyatlariga eng yaxshi darajada moslash-

tirish, shuningdek, bank imkoniyatlarini bank nazoratiga bo'y-sunmaydigan bank xizmatlari bozor omillariga ham muvofiq keltirishdan iborat.

Marketing rejasi quyidagi bo'limlardan iborat:

- bankning qisqa va uzoq muddatli maqsadlari tavsifi;
- bank xizmatlari bozorlar istiqbolini belgilash natijalari;
- bank faoliyatining har bir bank xizmatlari bozoridagi marketing strategiyalari tavsifi;
- marketing rejasini nazorat qilish tadbirlari tavsifi.

Reja — o'zgaruvchan, yangiliklarga yuqori darajada moyil dunyoda bank faoliyatini ta'minlashi kerak. Rejadagi ma'lumotlar ehtimolli tabiatga ega bo'lgani uchun marketing rejasi «qonun» emas, balki «egiluvchan» dasturdir.

Holatiy tahlil:

- 1) vaziyat (bankdagi ahvol);
- 2) bashorat (bankni nimalar kutmoqda);
- 3) tashqi muhit ta'siri.

Marketing sintezi:

- 4) maqsadlarni ilgari surish;
- 5) maqsadlarni baholash;
- 6) qaror qabul qilish.

Strategik rejalashtirish:

- 7) strategiyalarni ilgari surish;
- 8) strategiya tanlash;
- 9) taktika ishlab chiqish haqida qaror.

Taktik rejalashtirish:

- 10) taktikani aniqlash;
- 11) tezkor rejani ishlab chiqish;
- 12) tezkor rejani amalga oshirish.

Marketing nazorati:

- 13) ma'lumotlar yig'ish;
- 14) ma'lumotlarni baholash;
- 15) holatiy tahlil o'tkazishga qaror chiqarish.

Bank marketingida davriy ravishda (yilda 1—2 marta) «ichki taftish» yoki «holatiy tahlil» bilan shug'ullanib kelinmoqda. «Holatiy tahlil» bankning oldingi faoliyatini baholash, uning yutuq va kamchiliklarini ko'rib chiqish, bu yutuq va kamchiliklar saba-

bini aniqlash, xizmatchilar saviyasi va ularning ish faoliyati samaradorligini aniqlash kabi ko'plab savollarga javob topish imkonini beradi.

«Holatiy tahlil» uzoq va ichki bank xizmatlari bozorida faoliyat olib borib, tashqi bank xizmatlari bozoriga chiqmoqchi bo'lgan banklarga juda ham zarur.

«Holatiy tahlil» bir necha guruh savollariga javob topishdan iborat. Masalan, bank qanday bank xizmatlari bozorida faoliyat olib boradi? Bu bank xizmatlari bozorining asosiy segmentlari qaysilar? Asosiy raqobatchilar kimlar? Ular bank xizmatlari bozorida qanday ulushga ega va h.k.

Savollarga javob topish sifati tahlilning samaradorligiga va bu javoblar asosida rahbariyat qabul qiladigan qarorlarga ta'sir ko'rsatadi.

Marketing strategiyasi ichki muhitini tashqi muhitga moslashtirishdan iboratdir.

Strategiya ko'p bo'lishi mumkin, asosiysi, har bir bank xizmatlari bozor yoki xizmatlar uchun mos strategiyani tanlashdir. Strategiya turlari:

- tashkiliy tuzilmani takomillashtirish;
- ish faoliyatini oshirish;
- chet ellik hamkor bilan hamkorlikni xorijda tashkil etish;
- chet ellik hamkor bilan hamkorlikni mamlakat ichkarisida tashkil etish.

Bank xizmatlari bozoriga mos holda strategiya tanlanadi. Savdo hajmining tez o'sishini ta'minlovchi strategiyalar:

- yangi bank xizmatlari bozoriga tez kirib borish;
- ixtisoslashish;
- yangi xizmatlar tamoyilini ilgari surish;
- yangi texnologiyalarni qo'llash;
- xizmatlar to'g'risidagi axborotlarni butun dunyoga tarqatish.

Marketing tamoyil-uslublarini bilish ichki va tashqi bank xizmatlari bozorida muvaffaqiyat garovi emas. Muvaffaqiyatga erishish uchun marketing bilimlarini chuqur bilishgina emas, balki uni amaliyotda samarali qo'llash ham zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, marketingning asosiy vazifasi bank faoliyatini uning strategik maqsadlaridan kelib chiqib, yuqori saviyada rejalashti-

oligopolistik raqobat;

- sof monopolistik raqobat.

Raqobat usullari o'z mohiyatiga qarab, turli xil bo'ladi. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo, narx va narxsiz raqobat usullari bilan birga marketing sohasida raqobatning yana uch turi mavjud:

- funksional raqobat. Bir ehtiyojni qondirishning turli usullari mavjud bo'lishi bilan bog'liq raqobat;

- tur raqobati. Bir maqsadga mo'ljallangan turlicha, ammo g'oyat muhim tomonlari bilan ajralib turuvchi xizmatlar raqobati. Masalan, dvigatel quvvati har xil bo'lgan bir sinfga mansub 5 o'rinli avtomobillar;

- buyum raqobati. Banklar tomonidan mohiyat e'tibori bilan bir xil, lekin sifatli qilib tayyorlangan yoki hatto sifati ham bir xil xizmatlar raqobati, buni banklararo raqobat ham deyiladi.

Bank xizmatlari bozoridagi raqobatli vaziyatlar

Raqobatning shunday turi ham mavjudki, u jamiyat tomonidan qoralanadigan g'irrom raqobatdir. Bunday raqobatda banklar g'ayri-qonuniy usullardan foydalanadilar. Masalan:

- narxlar bo'yicha bir necha bankning kelishib olishi;
- boshqa bank xizmatlarining nomi, tashqi ko'rinishi, xizmatlar markasidan ruxsatsiz foydalanish;
- raqib banklar to'g'risida noto'g'ri yoki to'g'ri bo'lsa ham ularning obro'siga zarar yetkazuvchi ma'lumotlar tarqatish;
- raqobatchilarga nisbatan reket, shantaj va hokazolar yordamida zo'ravonlik qilish;
- raqobatchilar tijorat sirlarini o'g'irlash;
- konfidensial va maxfiy ma'lumotlarni ovoza qilish;
- xizmatlar sifati, xususiyatlari kabi masalalarda xaridorlarni aldash, noto'g'ri axborot berish va reklama qilish.

6.5. Raqobatbardoshlik va unga erishish usullari

Xizmatlarning sifati uning raqobatbardoshligini belgilovchi ko'rsatkichdir. Xizmatlar sifati o'z ichiga juda ko'p unsurlarni oladi. Xizmatlarning raqobatbardoshligini boshqa banklar xizmatlari bilan solishtirib aniqlash mumkin. Boshqacha qilib aytganda, raqobatbardoshlik nisbiy tushunchadir. Har bir xaridor o'z

ehtiyojlarini qondirishni o'zicha baholaydi. Bundan esa raqobatbardoshlikni shaxsiy farqlashlar tomoni ko'rinadi.

Xizmatlar raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatuvchi yana bir omil uning iste'mol qiymati, ya'ni ushbu xizmatlar uchun xaridor to'lashga tayyor bo'lgan eng yuqori baho hisoblanadi. Raqobatbardoshlikni ifodalovchi parametrlar quyidagi guruhlariga ajratiladi: *texnik, iqtisodiy va tashkiliy*.

Shuni yaxshi bilish kerakki, ya'ni xizmatlar sifati va xizmatlar raqobatbardoshligi turli tushunchalardir. Umumjahon standartlariga ko'ra, raqobatbardoshlik darajasini aniqlashda yuzdan ortiq iqtisodchi ekspertlar va uch yuz qirqa yaqin ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Olingan natijalar o'n omil bo'yicha guruhlanadi:

- iqtisodiy istiqbol va iqtisodiyotning o'sish sur'ati;
- sanoat ishlab chiqarishning samaradorligi;
- fan va texnikaning rivojlanishi darajasi va fan-texnika yutuqlarini o'zlashtirish sur'ati;
- xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish;
- ichki bank xizmatlari bozor sig'imi va o'zgarishi;
- bank tizimining moslashuvchanligi;
- iqtisodiyotning davlat tomonidan boshqarilishi;
- mehnat resurslarining kvalifikatsiya darajasi;
- sotsial-iqtisodiy va siyosiy ahvol.

Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish uchun eksport muammosini hal qilish va import o'rnini bosuvchi xizmatlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish muhim masaladir.

Buning uchun xomashyo eksportidan tayyor mahsulot eksportiga o'tish, korxonalarni yangi texnologiyalar bilan ta'minlash, eksport bilan shug'ullanuvchi sohalarni banklashtirish va kreditlashtirish, soliq imtiyozlarini qo'llash, ishchilar va rahbar xodimlar malakasining yuqori bo'lishiga erishish, sug'urta tarmoqlarini rivojlantirish, xomashyolarni qayta ishlovchi yangi texnologiyalarni joriy etish kabi vazifalarni bajarish lozim.

6.6. Bank xizmatlarini sotish va reklama

Bank xizmatlari — bankning vositachilik, resurslarni jalb qilish yoki daromad ko'rish yo'nalishida resurslarni joylashtirish bilan bog'liq bank operatsiyalari majmuyi.

Bank xizmatlarini sotish bank marketingining vazifasi hisoblanadi. Bank xizmatlari mazkur xizmat haqida mijozlarga ma'lumotlar berish orqali, ya'ni reklamalar yordamida amalga oshiriladi.

Bank o'z xizmatlarini reklama qilayotganda va sotayotganda quyidagi talablarga qat'iy rioya qilishlari shart:

1. Har qanday bank reklamasi:

- qonuniy bo'lishi va mazkur vaqtda amal qilayotgan yuridik me'yorlar va yo'riqnomalarga muvofiq bo'lishi lozim;

- vazmin, etika me'yorlariga nisbatan umumiy qabul qilingan qarashlarga monand bo'lishi, bunda banklar diniy matnlardan, milliy ramzlardan foydalanishga va turli diniy e'tiqodni qaror top-tirishga yo'l qo'ymasliklari kerak;

- haqqoniy bo'lishi, taklif etilayotgan xizmatlarni hech mubog'lag'asiz aniq ta'riflashi shart. E'lon qilinayotgan axborot aniq bo'lishi va chalkashuvga yo'l qo'ymasligi lozim. Banklar o'z xizmatlarining haddan ziyod reklama qilinishidan saqlanishlari, ammo o'z mahsuloti va taklif etilayotgan xizmatlarining xususiyatlarini yashirishga, shuningdek, jamiyatning xabarsizligidan foydalanishga urinmasliklari lozim;

- halol raqobatchilik doirasida bo'lishi shart. Banklar mijozning maxfiyligini va, umuman, bank tizimining obro'-nufuzini hurmat qilishlari, har qanday kredit muassasalari xususida jamiyatda xavotirlikni vujudga keltirmasliklari, boshqa banklar mahsulotlarini bevosita yoki bilvosita obro'sizlantirmasliklari, shuningdek, ularning sha'niga nojoiz mulohazalarni bildirmasliklari kerak.

2. Bank muhsuloti va xizmatlarini reklama qilishda yagona atamalardan foydalanish lozim, toki mijozlarga turli banklar tomonidan taklif etilayotgan shu kabi mahsulotlar va xizmatlarni taqqoslash imkoniyati yaratilsin. Qiyosiy ma'lumotlar isbotlanishi mumkin bo'lgan aniq omillarga asoslanishi, mukammal bo'lishi va halollik hamda etika qoidalari talab qilganidek, reklama maqsadida berilayotgan axborotning odob yuzasidan, adekvat va xolis bo'lishi kabi omillar bilan belgilanishi shart.

3. Milliy va xalqaro qoidalarga muvofiq, boshqa kredit muassasasi tomonidan o'z bank mahsuloti va xizmatlarini rivojlantirish maqsadida foydalaniladigan joriy yoki dastlabki reklamalarning mazmunini ijozatsiz ko'paytirish mumkin emas.

Mijozga xizmat ko'rsatish

Banklar barcha mijozlarga bir xil darajali va sifatli xizmatlarni ko'rsatishlari hamda ularning millatiga, diniga, jinsiga, moliyaviy ahvoriga yoki kasbiy qobiliyatiga qarab kamsitilishiga yo'l qo'y-masliklari lozim.

Banklar o'z xizmatlari va mahsulotlari texnologiyasini modernizatsiyalash va yangilashga doimo intilishlari, har bir mijoz operatsiyalarni oson bajarishi uchun foydalaniladigan elektron tizimni keng qo'llashlari zarur. Bundan tashqari, banklar ularning tizimi mahalliy darajaga ham, xalqaro darajaga ham mos kelishini kafolatlashlari kerak.

Banklar bank operatsiyalariga oid yangi texnologiyalardan foydalanishni bilmaydigan ko'pchilik kishilar uchun ayon va tushunarli bo'lgan hamda zamonaviy texnologiyaga asoslangan xizmatlarga taalluqli texnikaviy va boshqa operatsiya shartlarini kafolatlashlari lozim.

Maxsus mahsulot, xizmat yoki operatsiya tizimiga nisbatan yangi texnologiyalar qo'llanilishini talab qiluvchi har qanday bitimni imzolashdan avval banklar bunday texnologiyadan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ehtimol tutilgan kamchiliklar to'g'risida va bu texnologiyalar bilan ishlash usullari haqidagi ma'lumot bilan mijozlarni ta'minlashlari zarur. Bundan tashqari, banklar shartnoma tuzuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlari to'g'risida axborot berishlari kerak.

Banklar o'z mijozlariga yangi texnologiyalardan foydalanishda ularning iqtisodiy va operatsion afzalliklarini, shuningdek, bunday operatsiyalarni nihoyasiga yetkazishga to'sqinlik qiluvchi ehtimol tutilgan holatlarni tushuntirib berishlari shart.

Banklar elektron usulda amalga oshiriladigan operatsiyalar (bank-mijoz tizimi) ushbu operatsiyalarni tartibga solib turuvchi shartnomaviy majburiyatlar va yuridik huquqlarga muvofiq bajarilishini kafolatlashlari kerak. Ayniqsa, bu ahdlashib olgan tomonlarning shaxsiy axborotini tizim amal qilayotgan paytda himoya qilishga taalluqlidir.

Banklar elektron usulda bajariladigan operatsiyalar xavfsizligini, yozuvlarning aniqligini, shuningdek, bank fayllarida tegishli operatsiyalar aks ettirilishi va saqlanishini kafolatlashlari kerak. Banklar elektron qurilmadan foydalanuvchilar uni noto'g'ri ishlatganliklari va buning oqibati uchun javob bermaydilar.

Banklar bilan boshqa muassasalar o'rtasidagi munosabatlar

Banklar sog'lom va kuchli raqobatni rivojlantirishlari, bankning ham, umuman, butun bank tizimining ham obro'-nufuzini va ishonchliligini kuchaytirishlari lozim.

Ishonchga putur yetkazuvchi bank faoliyatiga va til biriktirib amalga oshiriladigan faoliyatga erkin tadbirkorlik tizimida o'rin bo'lmasligi kerak.

Banklar mijozlarni jalb etishga doir kuch-g'ayratlarini asosan ko'rsatiladigan xizmatlarga sarflashlari lozim. Bunda ular boshqa banklarning ehtimol tutilgan kamchiliklarini ta'kidlamasliklari va ijtimoiy matbuotdan foydalanishga va mijozlarni jalb etish maqsadida muayyan banklarga taalluqli bo'lgan noxush holatlarga yo'l qo'ymasliklari, shuningdek, afgor ommada shubha uyg'otmasliklari zarur.

Bank firmalar o'rtasida jo'shqin, lekin adolatli raqobat ta'minlanishiga ko'maklashishi, shuningdek, raqobatni haddan ziyod va adolatsiz ravishda cheklovchi amaliy faoliyatning, monopoliyalar va faoliyatning turli noxush ko'rinishlari shakllanishining oldini olishga ko'maklashishi lozim. O'zining barcha xizmatlarini ko'rsatishda bank qattiq, lekin adolatli va oshkora raqobatda ishtirok etadi.

Bank kengashi a'zolari, bank rahbarlari, mansabdor shaxslari yoki xodimlari raqobatchilarga nisbatan axloqning yuksak etika andozalariga rioya etishlari zarur. Bank siyosati ayni raqobatchini tanqid qilishdan emas, balki diqqat-e'tiborni o'z xizmatlari va xodimlarining sifati va raqobatbardoshligiga jalb etishdan iboratdir.

Bank kengashi a'zolariga, bank rahbarlari, mansabdor shaxslari yoki xodimlariga foiz stavkalarini, tijorat faoliyatini, marketing siyosatini belgilash maqsadida raqobatchilar bilan birgalikda tadbirlar o'tkazish yoki keng jamoatchilikka oshkor etilmagan bankning kelgusi rejalarini ma'lum qilish man etiladi. Banklar ayrim korxonalar uchun ham, umuman, jamiyat uchun ham birgalikda xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirish masalalari bo'yicha jamoatchilik tashkilotlari, korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlik qilishlari lozim.

6.7. Reklama tushunchasi.

Reklama kompaniyasini rejalashtirish

Xizmatlar harakatida reklama muhim o‘rinni egallaydi. Marketing va reklama bir yirik jarayonning ikki tomonini tashkil etadi.

Reklama — bu g‘oyalar, xizmatlar va xizmatlarni ularning ishtirokisiz aniq buyurtmachi hisobiga taqdim etish va olg‘a surishning turli shaklidir. Mutaxassislar fikricha, reklama kommunikatsiya shakli deb qaraladi, ya‘ni u xizmatlar sifati, xizmat ko‘rsatish va g‘oyani iste‘molchining talab va ehtiyojiga muvofiq tashkil etishga intiladi.

Reklamaning mohiyati ishlab chiqarish manfaatidan kelib chiqib, xaridorda xizmatlarni sotib olish to‘g‘risida tasavvur uyg‘otadi.

Reklama faoliyati doirasiga quyidagilar kiradi:

a) iste‘molchining reklama qilinayotgan xizmatlar hamda bank xizmatlari bozoriga bo‘lgan ehtiyojini o‘rganish;

b) maqsadga erishishni strategik rejalashtirish, bank xizmatlari bozori chegarasini aniqlash, reklama vositalaridan foydalanish rejalarini ishlab chiqarish va uni banklashtirish yuzasidan zarur tadbirlar ishlab chiqarish;

d) reklama vositalarini tanlash bo‘yicha xarajatlar tizimini belgilashda taktik qarorlar qabul qilish, matbuotda e‘lonlarning yoritilishi va namoyish qilinishi yuzasidan tadbirlar ishlab chiqish;

e) matn yozishni hisobga olgan holda e‘lon tuzish, maket tayyorlash, uni badiiy bezash va ishlab chiqish.

Shulardan kelib chiqib tadqiqotlar uch asosiy yo‘nalishda olib boriladi: iste‘molchilarni o‘rganish, xizmatlar tahlili, bank xizmatlari bozori tahlili. Reklama bank va mijozlar o‘rtasidagi butun aloqa tizimini o‘z ichiga oladi.

Reklama agentligi — bu reklama beruvchilar uchun ixtisoslashtirilgan xizmat turlarini taklif etuvchi vositachilar bo‘lib, ular iste‘molchilar qidirayotgan xizmat va xizmatlar bo‘yicha buyurtmachi uchun reklama tayyorlaydi va uni reklama vositasiga joylashtiradi.

6.8. Banklar tomonidan mijozlarga xizmat ko‘rsatishni tashkil etish

Bank tomonidan mijozlarga xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish va xizmat turlari sifatini oshirish hozirgi kunda bank marketingining asosiy va dolzarb masalasi bo‘lib kelmoqda.

O'zbekiston banklarida mijozlarga xizmat ko'rsatishning yangi shakllari kundan kunga shakllanib va takomillashib bormoqda. Hozirgi kunda mijozlarga tijorat banklari yanada qulayliklar yaratib, xizmat ko'rsatishni yaxshilamoqda. Bunga misol tariqasida banklarda front ofis va bek ofis ishlarining tashkil qilinganligini keltirishimiz mumkin.

Front ofis va bek ofis hisob yuritish-operatsiya apparati tarkibiga kiradi.

Bankning hisob yuritish-operatsiya apparati to'lov hujjatlarini qabul qilish va nazoratda tutish, bank operatsiyalarini buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aks ettirish bilan shug'ullanuvchi mas'ul ijrochi bo'lgan mutaxassislardan iborat. Mas'ul ijrochilar yuridik va jismoniy shaxslarga ular bankda bajarayotgan hisob-kitob-pul operatsiyalari bo'yicha xizmatlar ko'rsatadilar; vakillik, depozit, qarz va boshqa hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalar o'tkazadilar; xalqaro hamda mahalliy hisob-kitoblar bo'yicha akkreditiv, inkasso, jo'natma va boshqa operatsiyalarni amalga oshiradilar.

Hisob yuritish — operatsiya apparatiga bosh buxgalter rahbarlik qiladi. Uning asosiy vazifasi buxgalteriya hisobi o'z vaqtida, yalpisiga va to'g'ri tashkil etilishini ta'minlashdan iboratdir. Bunda u buxgalteriya hisobini yuritishning bank belgilagan hamda Markaziy bank tartibga soladigan qoidalari, usullari, uslublariga asoslanadi. Bundan tashqari, bosh buxgalter bankning moddiy va moliyaviy resurslaridan oqilona, tejab-tergab foydalanilishini hamda bank aktivlari but saqlanishini nazorat qiladi.

Bankning hisob yuritish-operatsiya apparati quyidagilarga bo'linadi:

- *chakana bank mutaxassislari* — jismoniy shaxslarga xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar;
- *korporativ bank mutaxassislari* — korporativ mijozlar, ya'ni yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislar;
- *bankning ichki faoliyatini ta'minlovchi mutaxassislar.*

Hisob yuritish-operatsiya apparatining tashkiliy tuzilishi xodimlarni front ofis va bek ofis mutaxassislarga bo'lish prinsipi bo'yicha quriladi.

Front ofis bankning bevosita mijozlar bilan muloqotda bo'ladigan operatsiya xodimlaridan iboratdir.

Front ofis mutaxassislarining funksional vazifalariga quyidagilar kiradi:

- mijozga bank xizmatlarini sotish;
- mijozlardan hujjatlarni, jumladan, mijozlarga olisdan elektron xizmat ko'rsatish vositalari (*R* — bank) orqali yuborilgan hujjatlarni qabul qilish;
- mijozlarning bank orqali bajarilayotgan operatsiyalarini huquqiy va moliyaviy jihatdan oldindan hamda joriy nazorat qilish;
- hisob-kitob-pul operatsiyasi bajarilganini tasdiqlab, mijozga tilxat berish.

Front ofis ichida bank uchun, ayniqsa, muhim mijozlarga xizmat ko'rsatadigan alohida sho'ba (*V.I.P.* — servis) ajratilishi mumkin.

Bek ofis biznes mahsulotlarini qo'llab-quvvatlash, front ofis ruxsat bergan operatsiyalar hisobini yuritish bilan shug'ullandigan bank bo'linmasi sifatida tashkil etiladi.

Bek ofis mutaxassislarining funksional vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- front ofis ruxsat bergan operatsiyalarni hisob yuritishning avtomatlashtirilgan bank tizimlarida aks ettirish;
- operatsiyalarni joriy va keyingi tarzda nazorat qilish;
- hisobotlar tuzish.

Bank nuqtayi nazaridan hisob yuritish-operatsiya apparatini front va bek ofislarga bo'lishning mohiyati shundaki, bunda front ofis xodimlari bevosita mijozlarga xizmat ko'rsatadilar, bek ofis xodimlari esa front ofis xodimlari ilgari boshlagan operatsiyalarga mijoz ishtirokini ham, u kutib turishini ham talab qilmaydigan bosqichda ishlov beradilar.

Mijozlar nuqtayi nazaridan, bunday taqsimot mohiyati shundan iboratki, bunda ular kreditlardan tashqari, o'zlarining barcha masalalarini bankning bir bo'limi va bir binosida, lekin ehtimol turli xodimlari bilan hal etish imkoniga ega bo'ladilar.

Mijoz operatsiya o'tkazila boshlangan vaqtdan e'tiboran to u tugallanganicha (yoki operatsiya o'tkazilgani to'g'risida tilxat olgunicha) front ofis xodimlari bilangina aloqada bo'lishi front ofis va bek ofis ishi to'g'ri yo'lga qo'yilganidan dalolat beradi. Mijoz bek ofis borligini his qilmaydi. Faqat kassa va kredit operatsiyalari bundan mustasno. Zero, shunday xizmatlar ko'rsatishda kassa va kredit xodimlari ham qatnashadilar.

Mijozga xizmatlar ko'rsatish

Taklif etilayotgan tuzilmada bank xizmatlarining butun kompleksini mijoz bittagina front ofis bo'limida oladi. Buning uchun mazkur bo'limda bank taklif etayotgan xizmatlarning barcha turlarini yaxshi biladigan mutaxassislar to'plangan bo'lishi lozim.

Ayni paytda, bank mijozlarga taqdim etadigan xizmatlar hamda shu xizmatlarni ko'rsatish shartlari ro'yxati bankning real mijozlariga ham, potensial mijozlariga ham e'lon qilingan hamda ma'lum bo'lishi kerak.

Xizmatlar ko'rsatilayotganda g'ayrioddiy vaziyatlar yuzaga kelishi mumkinligini hisobga olib, bu bo'limlarda muayyan turdagi xizmatlarga (masalan, import yoki eksport kontraktlarini hisobga olish va ro'yxatdan o'tkazishga) ixtisoslashgan yuqori malakali xodimlar ham bo'lishi kerak. Bunday holat vujudga kelgan masalalarni joyning o'zida malakali hal etish hamda umuman tegishli operatsiyalarni nazorat qilish imkonini beradi.

Mas'ul ijrochi operatsiyalarni bajarishi uchun bilishi zarur bo'lgan qonunlar doirasi qancha tor bo'lsa, u shuncha tez va sifatli ishlaydi, degan fikrga asoslansak, front ofis mas'ul ijrochilari o'rtasida mijozlar taqsimlanayotganida bir mas'ul ijrochi bir xil yo'nalishdagi mijozlarga xizmat ko'rsatishi lozimligini ko'zda tutish zarur. Biroq bunda mijoz va uning barcha hisobvaraqlari bo'yicha bitta mas'ul ijrochi xizmat ko'rsatishi kerak.

Front ofis xodimlari xizmat ko'rsatiladigan mijozlar turlariga, ular jismoniy yoki yuridik shaxs ekaniga qarab, guruhlarga bo'linishi lozim. Qonunlar xilma-xilligi (yoki bir xilligi)ga qarab, yuqorida aytilgan mijozlar turlari kichikroq turlarga ham bo'linishi mumkin:

- faqat milliy valuta bilan ishlaydigan mijozlar;
- milliy valuta bilan ham, xorijiy valuta bilan ham ishlaydigan mijozlar.

Mijozlarning har xil turlari uchun qonun bazasi xilma-xilligini hisobga olib, ularni quyidagi guruhlarga bo'lish tavsiya etiladi:

1. Korxona va tashkilotlar:

- mamlakat doirasida ham, chet ellarda ham faoliyat olib boradiganlar, bular — har qanday tashkilotlar, jumladan, chet el vakolatxonalari, ya'ni bular milliy valutada ham, xorijiy valutada ham hisobvaraqlari bor bo'lgan har qanday tashkilotlardir;

- faqat mamlakat doirasida faoliyat olib boradigan yirik (korporativ) mijozlar;

- kichik va o'rta biznes korxonalari va boshqa tashkilotlar, shuningdek, yuridik shaxs maqomini olmagan tadbirkorlar.

2. Jismoniy shaxslar:

- bankda milliy valutada ham, xorijiy valutada ham hisobvarag'i bor jismoniy shaxslar;

- bankda faqat milliy valutadagi hisobvarag'i bor jismoniy shaxslar.

Bank front ofisi xodimlarining har bir guruhi mijozlarga ular turi bo'yicha ko'rsatiladigan andozaviy xizmatlarning barchasini taqdim etadi. Xodimlarning alohida guruhlarini mijozlarga operatsiyalarning qancha ko'p turini taqdim etsa, shu guruhdagi bir mas'ul ijrochi atrofida jamlanadigan mijozlar shuncha kam bo'lishi kerak. Chunki bunday guruhdagi bitta mijozga xizmat ko'rsatish ko'proq vaqt talab qiladi, binobarin, mijoz bankka har gal kelganida ko'proq operatsiyalarni amalga oshiradi.

Nazorat olib borish

Mijoz taqdim etgan hujjatlar rasmiylashtirilishini ham, mijoz talab qilgan operatsiyalar to'g'ri bajarilishini ham oldindan nazorat qilish vazifasi front ofis zimmasiga yuklanadi. Qo'shimcha nazorat zarurat bo'lgan hollarda (bunday holatlar bank protseduralarida va qo'shimcha nazoratdan o'tkaziladigan operatsiyalar ro'yxatida qayd etilgan) front ofis mutaxassisi operatsiyaga doir hujjatlarni nazoratchi xodimga taqdim etadi. Mijozning bank amalga oshirayotgan operatsiyalari ustidan nazorat o'z xarakteriga ko'ra quyidagi turlarga bo'linishi mumkin:

- mijoz operatsiyalari uning ustavida belgilangan, bajarilishi mumkin bo'lgan operatsiyalar ro'yxatiga muvofiqligini tekshirish;

- mijoz xatti-harakatlari shartnoma asosida amalga oshirilayotganini tekshirish;

- mijoz o'z operatsiyalarini qonunlarda belgilangan doirada bajarayotganini tekshirish;

- hujjatlarni rasmiylashtirishda barcha talablarga rioya etilishi;

- to'lovni amalga oshirish uchun moliyaviy shart-sharoit mavjudligi.

Keyingi nazorat funksiyalarini keyingi nazorat operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi bek ofis xodimi keyingi kundan kechiktirmay amalga oshiradi.

Tarkibiy bo'linmalarning asosiy vazifalari

Bank operatsiyalari tavsiflanar ekan, taklif etilayotgan tuzilma bo'limlari javobgarligi chegarasini aniqlab olish uchun ular bo'yicha taqsimlanadigan vazifalarning taxminiy doirasi belgilanishi zarur. Shuni ham nazarda tutish lozimki, bo'lim zimmasiga yuklangan vazifalar doirasi qat'iy belgilab qo'yilmaydi. Ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi qanchaligiga hamda avtomatlashtirilgan bank tizimlari qo'llanilishiga qarab, bank bo'linmasi tarkibida bo'lim/sho'balar bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin. Buning natijasida ayrim vazifalar bek yoki front ofis doirasida bir bo'lim/sho'badan boshqa bo'lim/sho'ba zimmasiga o'tishi mumkin.

Vazifalar har bir bankning bo'lim/filiali uchun alohida bo'limlar bo'yicha taqsimlanadi.

FRONT OFIS

Korporativ mijozlar bilan ishlash bo'limi

1) mijozlarga bank operatsiyalarini bajarish qoidalarini tushuntirish;

2) mijozlarga bank xizmatlari to'g'risidagi shartnomalarni berish;

3) korporativ mijozlardan hisob-kitob-to'lov hujjatlarini (jumladan, kontraktlar bo'yicha to'lov hujjatlarini) qabul qilish;

4) operatsiya bank orqali bajarilganini tasdiqlovchi kvitan-siyalar, ma'lumotnomalar va boshqa axborot hujjatlarini mijozlarga berish;

5) mijozlar bilan andozaviy shakldagi depozit shartnomalari tuzish protseduralarini amalga oshirish;

6) bank mijozlari kontraktlarini tekshirish va qabul qilish;

7) mijozlarning konvertatsiya uchun taqdim etgan buyurtmalariga ishlov berish;

8) bank axborot bazasiga (BOK) mijozlarning naqd operatsiyalari to'g'risidagi yozuvlarni kiritish (tashqi to'lovlar bundan istisno qilinishi mumkin). Bunda darhol, mijoz huzurida bajarilishi kerak bo'lgan operatsiyalar naqd operatsiyalar deb hi-

soblanishi nazarda tutilmog'i lozim. Kiritilgan yozuvlar asosida BOKda buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun tegishli qaydlar avtomatik tarzda shakllanadi;

9) xizmat ko'rsatilayotgan mijozlar operatsiyalari bo'yicha hisobotlarni tuzish, tekshirish, tahlil qilish va o'z vaqtida taqdim etish;

10) hujjatlarni arxivlash uchun o'z vaqtida shakllantirish.

Chakana operatsiyalar bo'limi

1) mijozlarga bank operatsiyalarini bajarish qoidalarini tushuntirish;

2) mijozlarga bank xizmatlari to'g'risidagi shartnomalarni berish;

3) korporativ mijozlardan hisob-kitob-to'lov hujjatlarini (jumladan, kontraktlar bo'yicha to'lov hujjatlarini) qabul qilish;

4) operatsiya bank orqali bajarilganini tasdiqlovchi kvitan-siyalar, ma'lumotnomalar va boshqa axborot hujjatlarini mijozlarga berish;

5) mijozlar bilan andozaviy shakldagi depozit shartnomalari tuzish protseduralarini amalga oshirish;

6) BOKga mijozlarning naqd operatsiyalari to'g'risidagi yozuvlarni kiritish. Bunda darhol, mijoz huzurida bajarilishi kerak bo'lgan operatsiyalar naqd operatsiyalar, deb hisoblanishi nazarda tutilmog'i lozim. Kiritilgan yozuvlar asosida BOKda buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun tegishli qaydlar avtomatik tarzda shakllanadi;

7) chakana mijozlar operatsiyalari bo'yicha hisobotlarni tuzish, tekshirish, tahlil qilish va o'z vaqtida taqdim etish;

8) hujjatlarni arxivlash uchun o'z vaqtida shakllantirish.

Kreditlash bo'limi

1) andozaviy kredit shartnomalarini ishlab chiqishda qat-nashish;

2) kreditlashning yangi turlari yuzasidan takliflar tayyorlash;

3) bank (bo'lim) kredit siyosati yo'nalishlarini belgilash uchun iqtisodiyotning turli sho'balarini moliyaviy tahlil qilish;

4) kredit berish shartlari to'g'risida mijozlarga maslahatlar berish, mijoz bilan kredit maqsadini oldindan muhokama qilish, kredit berish to'g'risida qaror qabul qilinishi uchun mijoz taqdim etishi kerak bo'lgan hujjatlar ro'yxatini belgilash;

5) kredit olish to'g'risidagi mijoz arizasini qabul qilish;

6) mijozning kredit qobiliyatini hamda kreditdan foydalanish iqtisodiy asosnomasini tahlil qilish;

7) kredit qo'mitasiga kredit berish to'g'risida taklif tayyorlash;

8) kredit shartnomasini tayyorlash;

9) kredit shartnomasi shartlarini mijoz bilan muhokama qilish;

10) mijozdan garov (kafolat) majburiyatlarini qabul qilish;

11) bek ofis uchun kreditning barcha moliyaviy shartlari kiritilgan kredit anketasini tayyorlash;

12) imzolarni tekshirish;

13) mijozlar taqdim etgan balans va boshqa hisobotlar asosida ularning moliyaviy ahvolini monitoring qilish;

14) berilgan kreditlarni monitoring qilish, amaldagi kreditlarni doimiy ravishda kuzatib borish (maqsadli foydalanish, o'z vaqtida qaytarish masalalari va boshqalar);

15) kreditni qaytarish uchun mijoz hisobvarag'ida mablag' yetarli bo'lmagan hollarda mijozga u yaqinda kredit va/yoki uning foizlarini to'lashi kerakligini eslatib qo'yish;

16) kreditni qaytarish uchun mablag' kelib tushmagani sabablarini mijozlardan aniqlash;

17) kredit shartlari o'zgargan (ya'ni kredit muddati uzaytirilgan, qaytarish grafigi o'zgargan va boshqa) hollarda bek ofisga farmoyish tayyorlash;

18) kredit qo'mitasi qarori va kredit anketasi asosida qo'shimcha bitim tayyorlash;

19) kreditni «o'smaydigan» maqomiga o'tkazish to'g'risida qaror tayyorlash;

20) kreditlash masalalarida bek ofis xodimlariga professional yordam berib turish.

Pul muomalasi bo'limi

1) mijozning kassa rejasini qabul qilish va tekshirish;

2) kassa operatsiyalari bo'yicha hisobotlar tuzish;

3) korporativ mijozlarning naqd pul qo'yish to'g'risidagi arizalarini tekshirish;

- 4) limit chegarasidan chiqilgan hollarda korporativ mijozlarning naqd pul berish to'g'risidagi arizalarini tekshirish;
- 5) mijozlar kassa intizomiga rioya etishini tekshirish.

BEK OFIS

Hisob yuritish va hisob-kitob operatsiyalari bo'limi

- 1) mijozlarning bank tuzilmalarida tegishli nazoratdan o'tgan to'lov hujjatlari (yo'riqnomalari)ni bank bo'linmalaridan qabul qilish;
- 2) bank axborot bazalarida olingan hujjatlarning elektron nusxalarini yaratish. Ular avtomatik tarzda zarur qaydlar qilinishi uchun asos bo'ladi;
- 3) arxivlash uchun hujjatlarni o'z vaqtida shakllantirish;
- 4) bo'limda bajarilgan operatsiyalar bo'yicha hisobotlarni tuzish, tekshirish, tahlil qilish hamda o'z vaqtida taqdim etish;
- 5) chiquvchi to'lov-hisob-kitob hujjatlarining vakillik hisobvaraqlari orqali o'tadigan elektron nusxalarini ularning asl nusxasi bilan taqqoslash;
- 6) vakillik hisobvarag'i orqali o'tkazilgan operatsiyalar bo'yicha buxgalteriya yozuvlarini bank bo'limi balansiga avtomatik tarzda kiritish (ular tegishli tuzilmalar tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan hollarda);
- 7) vakillik hisobvarag'i orqali bajarilayotgan, bank bo'limida adresati topilmagan operatsiyalar bo'yicha tekshiruv o'tkazish;
- 8) filiallararo majburiyatlar hisobvaraqlarini taqqoslash;
- 9) BOKda mijozlar va hisobvaraqlarni ochish hamda yopish va ayni paytda barcha zarur rekvizitlarni kiritish (shu jumladan, hisobvaraqlarning tashqi 20 xonali nomerini ham kiritish), shuningdek, ularga tuzatishlar kiritish (ABT BOK NBSdan foydalanuvchi bo'limlar uchun);
- 10) mijozlar va hisobvaraqlarni BDMABda ro'yxatga olish (ABT BOK NBSdan foydalanuvchi bo'limlar uchun);
- 11) mijozlar va hisobvaraqlar bo'yicha ma'lumotlar bazasini ular belgilangan reglamentga muvofiqligi bo'yicha tahlil qilish;
- 12) ishlamayotgan hisobvaraqlarni davriy ravishda tekshirib turish va keraksiz hisobvaraqlarni yo'qotish.

Kliring va plastik kartochkalar emissiyasi sho'bas

- 1) bank plastik kartochkalarini sotib olish (yo'qolgani o'rniga boshqasini olish, muddatini uzaytirish, yopish va h.k.) uchun mijozlar topshirgan va front ofis qabul qilgan arizalarga ishlov berish;
- 2) plastik kartochkalar chiqarish va ularni front ofisga topshirish;
- 3) mijozlar plastik kartochkalardan foydalanib, bajargan operatsiyalar bo'yicha hujjatlarning bo'limlar hamda savdo nuqtalaridan olingan elektron nusxalariga ishlov berish;
- 4) hujjatlarni arxivlash uchun o'z vaqtida shakllantirish;
- 5) plastik kartochkalar bilan bajarilgan operatsiyalar bo'yicha hisobotlarni tuzish, tekshirish, tahlil qilish va o'z vaqtida taqdim etish;
- 6) savdo-servis korxonalari va tashkilotlar bilan ishlash.

Qarz-depozit bitimlari sho'bas (guruhi)

- 1) front ofis tayyorlagan hujjatlarga ishlov berish hamda kreditlar va depozitlar bo'yicha ma'lumotlarni bank avtomatlashtirilgan tizimga kiritish;
- 2) qarz-depozit (omonat) operatsiyalari bo'yicha keyingi nazorat.

Statistika ma'lumotlari sho'bas

(ABTdan foydalanuvchi bo'linmalar uchun)

- 1) ishlamayotgan, «uxlayotgan» hisobvaraqlarni davriy ravishda tekshirib turish va keraksiz hisobvaraqlarni yo'qotish;
- 2) mijozlar hisobvaraqlari darajasida o'ziga xos tariflarni kiritish;
- 3) yangi mijoz ochilayotganda — mijozni ABTda identifikatsiyalash hamda BDMABda ro'yxatdan o'tkazish;
- 4) ABTda mijozlarni ochish;
- 5) ABTda hisobvaraqlar ochish;
- 6) ABTda mijozga doir ma'lumotlarni o'zgartirish;
- 7) ABTda mijozni yopish;
- 8) ABTda mijoz hisobvarag'i o'lchamlarini o'zgartirish;
- 9) BDMABda korporativ mijoz ma'lumotlarini o'zgartirish;

10) ABT va BDMABda korporativ mijoz hisobvaraqlarini bandlash va bo'shatish;

11) ABT va BDMABda korporativ mijoz hamda uning hisobvaraqlarini yopish.

Ichki xo'jalik operatsiyalari bo'limi

1) bank axborot bazalarida (BOKda) aks ettirish uchun bankni biznes-quvvatlash masalalariga doir birlamchi hujjatlar (shart-nomalar, kontraktlar, buyruqlar, farmoyishlar)ni ma'muriy xizmatlar, moliya-tahlil apparati, bosh buxgalterdan qabul qilish;

2) bank bo'limi moliyaviy natijalari daromad va xarajatlar hisobvaraqlariga to'g'ri kiritilganini tahlil qilish;

3) bank bo'limi debitorlik-kreditorlik qarzlarini tahlil qilish;

4) soliqlar, yig'imlar va majburiy ajratmalarni hisoblash hamda ularni balansda aks ettirishga doir to'lov-hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish;

5) bank bo'limi asosiy fondlari, arzon va tez eskiruvchi buyumlar, ombor, ta'mirlash va kapital qo'yilmalari bo'yicha operatsiyalarning buxgalteriya hisobini yuritish;

6) bank bo'limi xodimlariga ish haqi va xizmat safari xarajatlarni hisoblab yozish, shuningdek, ularni balansda aks ettirish;

7) arxivlash uchun hujjatlarni o'z vaqtida shakllantirish;

8) bo'limda bajarilgan operatsiyalar bo'yicha hisobotlarni tuzish, tekshirish, tahlil qilish va o'z vaqtida taqdim etish.

Keyingi nazorat sho'bas

1) operatsiyalarning keyingi nazoratini olib borish;

2) bank bo'limining barcha tuzilmalaridan birlamchi hujjatlarni hamda operatsiya bajarilganini tasdiqlovchi bank hujjatlarini to'plash;

3) bank tuzilmalari taqdim etgan hujjatlarni operatsiyalar buxgalteriya daftari bilan taqqoslash;

4) belgilangan tartibga xilof ravishda bajarilgan operatsiyalarni aniqlash;

5) o'tkazilgan tekshiruv to'g'risida rahbariyatga hisobot berish;

6) barcha kundalik hujjatlarni saqlash uchun yig'majildga tikish;

7) bank kundalik hujjatlari yig'majildini arxivga topshirish.

Banklar kelajakda bank xizmatlarini mijozlarga sotishni tashkil qilishda bundan ham mukammal tizimlarni yaratishiga tilakdoshmiz.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Banklarda marketing xizmatlarini tashkil qilishdan ko'zlangan maqsad nimalardan iborat?
2. Bank marketingining mohiyatini yoriting.
3. Bank marketingi tamoyillari qaysilar?
4. Bank xizmatlari haqida mijozlarga ma'lumotlar berish usullari qanday?
5. Bank reklamalariga qanday talablar qo'yilgan?
6. Front ofis vazifalari.
7. Bek ofis vazifalari.
8. Marketingni rejalashtirish nima?
9. Marketing rejasi ko'rinishini tushuntiring.
10. Holatiy tahlil qanday o'tkaziladi?
11. Marketing strategiyasining mohiyatini ayting.
12. Marketing taktikasi usullari qanday?
13. Marketing budjeti qanday rejalashtiriladi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *I.A. Karimov*. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T., «O'zbekiston», 1995.
2. *I.A. Karimov*. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. T., «O'zbekiston», 2005.
3. Bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. T., «O'zbekiston», 2003.
4. Banklarda buxgalteriya hisobiga oid qonunchilik hujjatlari to'plami. T., «O'zbekiston», 2003.
5. *Т. Власова*. Банковский маркетинг. М., 1994.
6. *Путер Роуз*. Банковский менеджмент. М., 1995.
7. *И.М. Нечаева*. Финансовый и банковский менеджмент. М., 1996.
8. *А.И. Бланк*. Инвестиционный менеджмент. М., 1996.
9. *В.И. Валовой*. История менеджмента. М., 1997.
10. *Sh. Z. Abdullayeva*. Bank ishi. TMI, 2003.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

I bob. BANK MENEJMENTINING MOHIYATI, MAQSADI VA VAZIFALARI

1.1. Banklar va bank faoliyati	5
1.2. Bank menejmentining mohiyati va zarurligi	8
1.3. Bank menejmentining asosiy maqsadi, vazifalari va tamoyillari	10

II bob. BANK FAOLIYATINI MA’MURIY BOSHQARISH

2.1. Bank faoliyatini tashkil qilishning huquqiy asoslari	14
2.2. Bank boshqaruv organlari, ularning majburiyat, vakolat va vazifalari	19
2.3. Banklarning tarkibiy tuzilishi	24
2.4. Bank rahbarlari va xodimlariga qo‘yiladigan talablar	34
2.5. Kasb etikasi	39

III bob. BANK FAOLIYATINI MOLIVAVIY BOSHQARISH

3.1. Bank sarmoyasini boshqarish	46
3.2. Bank majburiyatlarini boshqarish	54
3.3. Bank aktivlarini boshqarish	66
3.4. Bank likvidligini boshqarish	69
3.5. Bankning kredit portfelini boshqarish	78
3.6. Banklarning daromadlari va xarajatlarini boshqarish	93
3.6.1. Tijorat banklarining daromadlari turlari va manbalari	93
3.6.2. Tijorat banklarining xarajatlari va ularning tarkibi	99
3.6.3. Tijorat banki foydasi va bank xarajatlarini kamaytirish yo‘llari	104
3.7. Bankning qimmatli qog‘ozlar portfelini baholash va uni boshqarish	106

IV bob. BANK FAOLIYATIDA HUJJATLASHTIRISH ISHLARINI TASHKIL QILISH

4.1. Banklarda ish yuritish	118
4.2. Chiquvchi va ichki hujjatlarni tuzish hamda rasmiylashtirish	119

4.3. Jo‘natilayotgan hujjatlarga ishlov berish	129
4.4. Hujjatlar ijrosi ustidan nazorat	134
4.5. Fuqarolarning yozma va og‘zaki murojaatlari bilan ishlash	140
4.6. Yig‘majildlar nomenklaturalarini shakllantirish va tuzish	141
4.7. Banklarda metodologiya ishlarining tashkil qilinishi	150
4.8. Bank faoliyatida arxiv ishlarining tashkil qilinishi	154

V bob. BANK FAOLIYATINI TAHLIL QILISH

5.1. Bank moliyaviy hisoboti	158
5.2. Bank operatsiyalari tahlili	170
5.3. Bank balansi tahlili	181
5.4. Bank moliyaviy natijalari tahlili	192
5.5. Bankning pul mablag‘lari harakati tahlili	194

VI bob. BANK MENEJMENTIDA MARKETINGNING AHAMIYATI

6.1. Marketing fanining asosiy rivojlanish bosqichlari	196
6.2. Bank marketingi haqida tushuncha va uning zarurligi	200
6.3. Bank xizmatlari bozorining segmentatsiyasi	202
6.4. Raqobat va uning usullari	202
6.5. Raqobatbardoshlik va unga erishish usullari	204
6.6. Bank xizmatlarini sotish va reklama	205
6.7. Reklama tushunchasi. Reklama kompaniyasini rejalashtirish	209
6.8. Banklar tomonidan mijozlarga xizmat ko‘rsatishni tashkil etish	209
Foydalanilgan adabiyotlar	221

F20 Fayziyev T. va boshq. BANK MENEJMENTI.
Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma
(2-nashri). T.: «ILM ZIYO», 2013. — 224 b.

UO'K: 336.71 (075)

KBK 65.290-2ya722

ISBN 978-9943-303-00-3

TOHIRJON FAYZIYEV,
BAXTIYOR RUXITDINOV,
OTABEK MIRZAG'ANIYEV

BANK MENEJMENTI

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

2-nashri

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2013

Muharrir *Z. Usmonova*
Badiiy muharrir *Sh. Odilov*
Texnik muharrir *F. Samadov*
Musahhah *T. Mirzayev*

Noshirlik litsenziyasi AI № 166, 23.12.2009-yil.

2013-yil 18-noyabrda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60x90¹/₁₆.
«Tayms» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 14,0.
Nashr tabog'i 12,0. 1062 nusxa. Buyurtma № 70

«ILM ZIYO» nashriyot uyi, Toshkent, 100129. Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Shartnoma № 27 — 2013.

«PAPER MAX» xususiy korxonasida chop etildi.
Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.